



# WorleyParsons

resources & energy



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH (EITB) TOM - I

Loyiha hujjati raqami

SGCCUP-00-EN-REP-0003

MAY 2018

27 Great West Road  
Brentford Middlesex TW8 9BW  
London  
UK  
Telephone: +44 (0) 20 8326 5000  
Facsimile: +44 (0) 20 8710 0220  
[www.worleyparsons.com](http://www.worleyparsons.com)

© Copyright 2017 WorleyParsons



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

---

### Ogohlantirish

Ushbu hujjat SHGKM nomidan va maxsus foydalanishi uchun, hamda SHGKM, WorleyParsons Europe Limited va WorleyParsons Uzbekistan Engineering o'rtaсидаги kelishuvga muvofiq tayyorlangan va taqdim etilgan.

WorleyParsons Europe Limited va WorleyParsons Uzbekistan Engineering uchinchi shaxs tomonidan ushbu hujjatdan har qanday tarzdagi, qisman yoki to'liq foydalanashi uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Ushbu hujjatdan SHGKM, WorleyParsons Europe Limited va WorleyParsons Uzbekistan Engineering ning yozma ruxsatisiz nusxa ko'chirish taqiqlanadi.

---

### SHGKMICHQK – EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM - I

NASHR	TAVSIFI	MUALLIF	TEKSHIRDI	WORLEY-PARSONS TASDIG'I	SANA	KOMPANIYANING TASDIG'I	SANA
-------	---------	---------	-----------	-------------------------	------	------------------------	------

A	Tekshirib chiqish uchun taqdim etish	K Kamyshina / S Mcclymont	T Romanenko	T Goodhand	29 Sen-17	N/A	
---	--------------------------------------	---------------------------	-------------	------------	-----------	-----	--

B	Yakuniy taqdim etish	K Kamyshina / S Mcclymont	T Romanenko	T Goodhand	11 May 18	N/A	
---	----------------------	---------------------------	-------------	------------	-----------	-----	--

EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM - I

## AVVALGI NASHRLARGA KIRITILGAN O'ZGARISHLAR:

## KUTILMOQDA:

NO.	BO'LIM	TAVSIF
-----	--------	--------

TOM I

1	2.5.3	Qurilish lageri: Qurilish lageriga bo'lgan talablarni tasdiqlash, masalan: Qurilishi dasturi kutilmoqda
2	2.5.5	Vaqtinchalik qurilish inshootlari uchun yer maydoni: Vaqtinchalik qurillish inshootlari uchun ajratilgan maydonning rejasи va joylashuvni tasdiqlash talab etiladi.

TOM II

3	7.5.3.3	Mahalliy er usti suvlari: Loyiha guruhidan Loyiha amalga oshiriladigan maydonning drenaj tizimi va ko'lamining tavsifi talab qilinadi.
4	8.6	Ekotizim xizmati: Ijtimoiy-iqtisodiy baholashning ma'lumotlari kutilmoqda
5	8.6.2	Qishloq xo'jaligi: bazaviy ijtimoy baholashning ma'lumotlari kutilmoqda
6	8.6.3	Chorvachilik: bazaviy ijtimoy baholashning ma'lumotlari kutilmoqda
7	8.6.4	Baliqchilik: bazaviy ijtimoy baholashning ma'lumotlari kutilmoqda
8	8.6.5	Sabzavotchilik: bazaviy ijtimoy baholashning ma'lumotlari kutilmoqda
9	8.6.6	Ov qilish: bazaviy ijtimoy baholashning ma'lumotlari kutilmoqda
10	8.6.8	Biokimyoziy, tabiiy dorilar va farmatsevtika:: Bazaviy ijtimoy baholashning ma'lumotlari kutilmoqda

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**

11	9.11.2	Nomoddiy madaniy meros va an'anaviy urf-odatlar – mamlakat ichidagi tadqiqotlardan loyihtagaga oid ma'lumot kutilmoqda
----	--------	--

**MUNDARIJA**

MUNDARIJA .....	4
QISQARTMALAR / TA'RIFLAR .....	8
<b>NOTESENKAVIY XULOSA .....</b>	<b>13</b>
1. KIRISH .....	2
1.1 Shor'tan Gaz Kimyo Majmuasi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish loyihasi to'g'risida ma'lumot.....	2
1.2 Loyihaning umumiyligi ta'rifi.....	2
1.2.1 Joylashgan o'rni .....	2
1.2.2 Qurilish maydoni tarixi.....	4
1.2.3 Loyiha hududi.....	4
1.2.4 Amalga oshirish grafigi.....	4
1.3 Loyiha tashabbuskori .....	6
1.3.1 Uzbeknefttegaz .....	6
1.3.2 SHGKM.....	6
1.4 Amalga oshirish zarurati.....	6
1.5 Loyiha uchun EITB talablari .....	6
1.5.1 Xalqaro moliya .....	6
1.5.2 EITBning maqsadi va amalga oshirish .....	7
1.5.3 EITB tuzilmasi .....	7
1.6 Tegishli hujjatlar .....	9
2. TAKLIF ETILAYOTGAN LOYIHA TAVSIFI .....	10
2.1 Umumiyligi ta'rifi .....	10
2.2 Joriy qurilish maydoni holati .....	11
2.2.1 Qurilish maydonining ko'rinishi .....	11
2.2.2 Mavjud qurilmalar.....	12

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**

---

2.2.3	Mavjud umumzavod xo'jaligi .....	23
2.2.4	Mavjud jarayonlar.....	23
2.2.5	Nordon gazlardan tozalash (NGT).....	23
2.2.6	Gazni quritish, sovutish va demetanizatsiyalash .....	24
2.2.7	Deetanizatsiya, Depropanizatsiya va Debutanizatsiyalash .....	24
2.2.8	Ta'minlash tizimi .....	25
2.2.9	Piroлиз, tobplash jarayoni, texnologik suvni tozalash va etan maxsulotini to'yintirish..	25
2.2.10	Pirogazini siqish va nordon gazdan tozalash.....	25
2.2.11	Pirogazni quritish .....	26
2.2.12	Sovutish tizimi .....	26
2.2.13	Pirogazni demetanizatsiyalash .....	27
2.2.14	Deetanizator, Atsetilen Konvertor va Etilen fraksiyasini ajratish kolonnasi .....	27
2.2.15	Propanli sovutish qurilmasi .....	28
2.2.16	Etilenli sovutish qurilmasi.....	28
2.3	Loyihaning tavsifi.....	29
2.3.1	Ta'rif .....	29
2.3.2	Loyiha Tarkibi.....	30
2.3.3	Yangi va Mavjud qurilish maydonlarida amalga oshiriladigan ishlar .....	33
2.3.4	Zavodning foydalanish muddati .....	33
2.4	Loyihaning boshqa infratuzilmalari.....	33
2.4.1	Chiqindilar bilan ishlash .....	33
2.4.2	Suv ta'minoti.....	34
2.4.3	Oqova suvlarni tozalash.....	35
2.4.4	Boshqa umumzavod xo'jaligi infratuzilmasi .....	36
2.5	Qurilish bosqichi .....	37
2.5.1	Qurilish strategiyasi.....	37
2.5.2	Dastlabki ishlar.....	38
2.5.3	Qurilish lageri .....	38
2.5.4	Boshqa qurilish inshootlari.....	39
2.5.5	Vaqtinchalik qurilish inshootlari maydoni .....	40
3.	LOYIHA MUQOBILI .....	41

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**

3.1	Ta'rif.....	41
3.2	Loyiha muqobili mavjud emasligi .....	41
3.3	Loyiha muqobili .....	41
3.3.1	Loyiha konsepsiysi muqobili .....	41
3.3.2	Ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish muqobili.....	42
3.3.3	FEED 2 qayta ko'rib chiqilgan ishlar hajmi bo'yicha muqobili.....	43
3.3.4	Qurilish maydoni muqobili.....	43
4.	MEYORIY VA HUQUQIY ASASOSLAR.....	44
4.1	Kirish.....	44
4.2	Milliy qonunchilik .....	45
4.3	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi .....	45
4.3.2	Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha milliy qonunchilik .....	46
4.3.3	Milliy Ijtimoiy-iqtisodiy Qonunchilik.....	55
4.3.4	Salomatlik va sanoat xavfsizligi bo'yicha milliy qonunchilik .....	61
4.4	O'zbekistonda ekologik va ijtimoiy ma'muriyat va tartibga solish organlari.....	65
4.4.1	Asosiy ma'muriyatlar va tartibga soluvchi organlar .....	65
4.4.2	Boshqa tegishli ma'muriyat va tartibga soluvchi organlar.....	66
4.5	Xalqaro shartnomalar va konvensiyalar .....	67
4.5.1	Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalari ratifikatsiyasining batafsil holati 2022-yil avgust	69
4.6	Ekologik va Ijtimoiy ta'sirni baholashning milliy talablari .....	70
4.7	Kreditorlarning maxsus nizomlari va standartlari .....	71
4.7.1	Ta'rif .....	71
4.7.2	Ekvator tamoyillari.....	71
4.7.3	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) umumiyl yondashuvlari .....	72
4.7.4	Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (XMK)ning faoliyat standardlari.....	72
4.7.5	XMK ning (Jahon Banki guruhi), ekologiya, salomatlik va sanoat xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalari	73
4.7.6	Maxsus loyiha standartlari .....	73
4.8	ShGKMning atrof-muhit siyosati va korporativ ekologik standardlari.....	74
5.	EITB YONDASHUVI VA METODOLOGIYASI .....	77

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**

5.1	Kirish.....	77
5.2	Ta'sirni baholash metodologiyasi .....	77
5.2.1	Qamrovni aniqlash bosqichi.....	77
5.2.2	Ta'sirni baholash ta'rifi .....	78
6.	IJTIMOIY MASLAHATLASHUV VA OSHKORALIK .....	83
6.1	Kirish va maqsad.....	83
6.2	Asosiy manfaatdor tomonlarni aniqlash .....	84
6.3	Maslahatlashuv, ishtirok etish va yakunlangan oshkoralik tadbirlari.....	85
6.3.1	Asosiy savollar va ko'tarilgan muammolarning qisqacha mazmuni.....	86
6.4	Kelajakdag'i o'zaro hamkorlik va oshkorarlik faoliyati .....	87
6.4.1	Qurilish va ekspluatatsiya .....	87
6.4.2	Ekspluatatsiyadan chiqarish .....	87
6.5	Vazifalar va Majburiyatlar .....	87
	ShGKMKL hayotiy tsikli uchun manfaatdor tomonlarning ishtiroki uchun javobgarlik ShGKM tomonidan saqlanadi.....	87
6.6	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi.....	87
	ETIB manfaatdor tomonlarni jalb qilish va oshkor qilish faoliyati davomida bildirilgan har qanday shikoyatlar ShGKM shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlariga muvofiq hal qilish uchun ShGKM tomonidan qayd etilgan. ShGKM barcha shikoyatlarni tegishli muddatlarda o'zaro maqbul hal qilishni ta'minlash uchun ularning tartiblariga muvofiq hisobot berish va hal qilish mas'uliyati bo'lib qoladi.87	

Jadval 15: Manfaatdor tomonlar toifalari

Jadval 16: Gazetada chop etilgan ommaviy tinglovlarning qisqacha mazmuni

Jadval 17: Ommaviy tinglovlardagi asosiy mavzularning qisqacha mazmu

**Ilovalar**

ILOVA 1: MANFAATDOR TOMONLARNI JALB QILISH VA JAMOATCHILIKKA OSHKOR QILISH  
QAYDLARI

ILOVA 2: HAVO DISPERSIYASINI MODELLASHTIRISH HISOBOTI

ILOVA 3: SHOVQINNI MODELLASHTIRISH

ILOVA 4: EKOLOGOYANI O'RGANISH BO'YICHA HISOBOT

ILOVA 5: GEOTEXNIK TEKSHIRUVLAR BO'YICHA HISOBOT



**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**

**QISQARTMALAR / TA'RIFLAR**

Akronim	Ta'rifi
NGTQ	Nordon Gazlarni Tozalash Qurilmasi
DSO'MB	Dengiz sathidan o'rtacha metr balanlik
TAD	Ta'sir doirasi
HAQ	Havoni Ajratish Qurilmasi
MZT	Mavjud bo'lgan zamonaviy texnologiya
LOA	Loyihalash Asoslari
B1	Buten-1
Bq.kg-1	Bekkerel 1 kg ga (radioaktiv parchalanish tezligi)
°C	Selsiy
Ca <sup>2+</sup>	Kaltsiy
CITES	Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to'g'risidagi konvensiya
Cl <sup>-</sup>	Xlor ioni
CO	Is gazi
CO <sub>2</sub>	Karbonat angidrid
CO <sub>2e</sub>	Karbonat angidrid ekvivalenti
YKXO	Yuqolib ketish xavfi ostida
dBA	Detsibel
MY	Ma'lumotlar yetishmasligi
DEA	Dietil Amin
EEXL	Ekologik ekspertiza xulosasi loyihasi
DIB	Deizobutanizator
DMDS	Dimetildisulfid
TTO	To'g'ridan-to'g'ri oksidlanish
EDD	Ekvivalent doza darajasi



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

Akronim	Ta'rifi
RnAEMHJ	Radon avlodlarining ekvivalent muvozanatli hajmiy faolligi
ETB	Ekologik ta'sirni baholash
EEX	Ekologik ekspertiza xulosasi
XO	Xavf ostida
ESIA	Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash
EISXTB	Ekologik, Ijtimoiy, Salomatlik va Xavfsizlikka ta'sirni baholash
EIBMR	Ekologik va ijtimoiy boshqaruv va monitoring rejasi
EU	Etilen qurilmasi
LHTB	Loyihaoldi hujjatlarini tayyorlash bosqichi
LHTB 1	Loyihaoldi hujjatlarini tayyorlash bosqichi 1
LHTB 2	Loyihaoldi hujjatlarini tayyorlash bosqichi 2
YIM	Yalpi ichki mahsulot
IG	Issiqxona gazlari
IXSA	Ilg'or xalqaro sanoat amaliyoti
GAQ	Gazni ajratish qurilmasi
GS	Gazdan suyuqlikka
Ga	Gektar
HCO <sup>3-</sup>	Bikarbonat ioni
H <sub>2</sub> S	Vodorod Sulfid
H <sub>2</sub> O	Vodorod okisidi
YZP	Yuqori zижлиki polietilen
OIV	Odamning immunitet tanqisligi virusi
H1	Heksen-1
YB	Yuqori bosim
SXA	Salomatlik, Xavfsizlik va atrof-muhit



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

Akronim	Ta'rifi
MQH	Muhim qushlar hududi
XMK	Xalqaro moliya korporatsiyasi
XMK-FS	Xalqaro moliya korporatsiyasining faoliyat standartlari
TMQXI	Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi
kg/h	kilogram soat
km	kilometr
Km <sup>2</sup>	Kilometr kvadrat
QMK	Qarshi magistral kanali
kty	kilo tonna yiligi
EKX	Eng kam xavotir
PZP	Past zichlikli polietilen
ChPZP	Chiziqli past zichlikli polietilen
LP	Past bosim
L/s	litr sekund
m	metr
m <sup>3</sup>	metr kub
MREK	Maksimal ruxsat etilgan konsentratsiyalar
QSXV	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi
mbgl	dengiz sathidan metr pastda
Mg <sup>2+</sup>	Magniy ioni
mg/m <sup>3</sup>	Milligram metr kub
SSV	Sog'liqni saqlash vazirligi
MAIMQV	O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi
m/s	meter sekund
m <sup>3</sup> /s	meter kub sekund



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

Akronim	Ta'rifi
mm	millimetр
mm <sup>3</sup>	millimetр куб
mm <sup>3</sup> /y	millimetр куб ёй
mm/kun	millimetр кун
mm/y	millimetр ёй
O'B	O'rtal bosim
MREK	Maksimal ruxsat etilgan konsentratsiyalar
TIV	Tashqi ishlar vazirligi
NKQ	Nafta kreking qurilmasi
NDT	Nodavlat tashkilot
NOx	Azot dioksidi
YXO	Yuqolish xavfi ostida
O <sub>2</sub>	Kislород
IHTT	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti
ZCHT	Zavod chegarasidan tashqarida
PM10	Zarra moddalar
mbq	Milliondan bir qismi
O'BA	O'zgaruvchan bosimdagi adsorbsiya
O'zR	O'zbekiston Respublikasi
EAMMQDQ	O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
ETBX	Ekologik ta'sirlar bo'yicha xulosa
DEE	Davlat ekologik ekspertizasi
MTJQR	Manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejisi
SHGKM	SHGKM



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

Akronim	Ta'rifi
SHGKMICHQK	Shurstan Gaz Kimyo Majmuasi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish loyihasi
SO <sub>2</sub>	Oltingugurt dioksidi
SO <sub>4</sub> <sup>-</sup>	Sulfat ioni
O'YB	O'ta yuqori bosim
SGQ	Selektiv Gidrogenlash qurilmasi
OTQ	Oltingugurtdan tozalash qurilmaso
UET	Umumiy erigan tuzlar
TiO <sub>2</sub>	Titan oksid katalizatori
UGQ	Umumiy gidrogenlash qurilmasi
TLIAA	Transfer liniyasi issiqqlik almashinuv apparatlari
TT	Texnik topshiriq
µg/m <sup>3</sup>	mikrogram meter kub
BMT	Birlash Millatlar Tashkiloti
µSv.h-1	Mikroziver soat (radiatsiya dozasi darjasи)
UNG	Uzbekneftegaz
BIRK	Bino ichidagi radon konsentratsiyasi
VU	Zaif
ZA: K	Zaif: Kamaymoqda
ZA: KK	Zaif: Kamdan-kam
WP	WorleyParsons
TRUJMB	Tuproq resurslari uchun jahon ma'lumotlar bazasi

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I****NOTESENKAVIY XULOSA****Sharh**

“O’zbekneftgaz” AJ tomonidan boshqariladigan O’zbekistonning Qashqadaryo viloyatidagi Sho’rtan Gaz Kimyo Majmuasi (SGKM) mavjud ob’yekt bo’lib, 2001 yildan buyon faoliyat ko’rsatmoqda. SGKM polietilen ishlab chiqarishning umumiy quvvatlarini oshirish va qo’shimcha polipropilen ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish maqsadida majmua va zavodni quvvatini oshirishni rejalashtirmoqda. Ushbu loyiha bundan buyon Loyiha yoki ShGKMICHQK Loyihasi deb yuritiladi. Loyiha doirasidagi obyektlarni qurib bitkazish 2025 yilga mo’ljallangan.

Ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash (EITB) Loyihaga nisbatan qo’llanishi mo’mkin bo’lgan Yaxshi xalqaro sanoat amaliyotiga (YXSA), ya’ni VI-Ekvator Tamoyillari (2020), Xalqaro moliya korporatsiyasining Samaradorlik standartlariga (XMK, 2012), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ning umumiy yondashuvlariga (2016), Xalqaro moliya korporatsiyasining Ekologiya, Salomatlik va Xavfsizlik (ESX) bo'yicha ko'rsatmalariga (2007) muvofiq tayyorlangan.

**Majmua joylashuvi va vaziyati**

SGKM maydoni O’zbekiston Respublikasining janubiy-g’arbiy qismida joylashgan. Ushbu maydon Toshkent shahridan taxminan 430 km va Qarshi shahridan janubiy-g’arbgan 33 km masofada, Qashqadaryo viloyatining G’uzor tumanida joylashgan. SGKM joylashgan hudud asosan rivojlanmagan bo’lib, unga eng yaqin aholi punktlari 6 km va 10 km uzoqligidagi Otquduq va Navbahor qishloqlaridir. Bundan tashqari, maydondan 3 km masofada ikkita ishchilar shaharchalari ham mavjud. Atrofdagi yerlarning katta qismi eksiz; biroq Navbahor qishlog’ida SGKM ishchilarini qishloq xo’jaligi mahsulotlari bilan ta’minalash uchun tashkil etilgan rasmiy qishloq xo’jaligi yerlari mavjud bo’lib, keyinchalik ushbu maydonlar davlat tasarrufiga topshirilgan. Sho’rtan ixtisoslashtirilgan o’rmon xo’jaligi ham SGKM zavodidan taxminan 2 km shimoli-g’arbda joylashgan. SGKM maydoni joylashgan hududida mavjud xizmatlar va infratuzilmalar qatoriga temir yo’l va milliy elektr tarmog’i kiradi. Suv to’g’ridan-to’g’ri Qarshi magistral kanalidan (QMK) mavjud nasos stantsiyalar orqali ta’minalandi, shuningdek zaxira suv manbai sifatida majmuadan 4 km uzoqlikda joylashgan SGKM suv omboridan foydalaniadi.

**Loyiha tavsifi**

SGKM tomonidan ishlatilayotgan mavjud zavod etan ajratish va etilen ishlab chiqarish uchun Sho’rtan gaz konning tabiiy gazidan foydalanadi. Etilen asosiy mahsulot sifatida ishab chiqarilayotgan chiziqli past zichlikdagi polietilenga (LLDPE) aylanadi. ShGKMICHQK Loyihasi polimer ishlab chiqarishga yaroqli etilen ishlab chiqarish yillik quvvatini hozirgi 140 ming tonnadan 430 ming tonnagacha oshirish va yiliga qo’shimcha 98 ming tonna polimer ishlab chiqarishga yaroqli propilen ishlab chiqarishni maqsad qilgan. Mazkur qo’shimcha etilen va propilenden yiliga 280 ming tonna yuqori zichlikdagi bimodal polietilen va yiliga 100 ming tonna polipropilen mahsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Bunga yaqin atrofda qurib bitkazilgan GTL zavodidan yiliga 430 ming tonna sintetik Naftani va tarkibidagi etan miqdori taxminan 60%ga oshirilgan tabiiy gazni qayta ishlash orqali erishiladi. Etilen/Propilen ishlab chiqarish zavodi qo’shimcha mahsulot sifatida gidrirlangan pirolizli distillyat ishlab chiqaradi.



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

ShGKMICHQK loyihasi amalga oshirilmasa, uskunalar, zavod texnologiyasi va polietilen ishlab chiqarish quvvatlari o'zgarmagan holda, mavjud holatda ishlashda davom ettiriladi.

Etan miqdori oshirilgan tabiyiy gazni etkazish uchun Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish bosqarmasiga qarashli Sho'rtan gazni qayta ishlash zavodidan yangi gaz o'kazish quvuri barpo etiladi. Shuningdek, yangidan qurib bitkazilgan GTL zavodini hamda loyihalanadigan ShGKMICHQK quvvatlarini gaz ta'minoti ishonchilik darajasini oshirish maqsadida Sho'rtan gazni qayta ishlash zavodida mavgud gaz xaydash kompressor stantsiya modernizatsiya qilinadi.

Qurib bitkazilgan GTL zavodidan va loyihalanayotgan ShGKMICHQK zavododan chiqadigan sanoat chiqindilarni saqlash uchun ikki zavod yaqinida yangi sanoat chiqindilari poligoni quriladi.

### *Boshqa infratuzilma - Chiqindilarni boshqarish va suv ta'minoti*

Mavjud asosiy zavod va yordamchi qurilmalar xo'jalik faoliyati natijasida SGKM dan taxminan 36 chiqindilar oqimi hosil bo'ladi, shu jumladan qattiq, suyuq, shlamli, maishiy va oziq-ovqat chiqindilari; ular xavfli va xavfsiz tarkibiy qismlarga bo'linadi. Chiqindilarni uzoq muddatli saqlash SGKM joylashgan joydan 3 km uzoqlikda joylashgan poligonda amalga oshiriladi.

Amudaryo daryosidan nasos stansiyalar orqali suv Tolimandjon suv omboriga yo'naltiriladi. Tolimandjon suv omboridan suv irrigatciya uchun va shaharlarni suv bilan ta'minlash maqsadida Qarshi magistral kanali (QMK) orqali tarqatiladi.

SGKM suvni Qarshi magistral kanalida (QMK) joylashgan nasos stansiyalar orqali oladi. Birinchi suv ta'minoti tizimining QMKdan nasos stansiyasi va 25 km.lik quvur o'tkazgich (diametri 1020 mm) orqali mavjud majmua extiyojlar uchun yetkaziladi. QMKdan olinadigan ikkinchi suv ta'minoti tizimi suvni SGKMning sun'iy suv omboriga yo'naltiriladi. Ushbu suv ombor zaxira sifatida hamda qish oylari davomida suv bilan ta'minlash uchun foydalilaniladi.

Hozirda ruxsat etilgan miqdordagi oqava suvlar chiqib ketuvchi JK (Janubiy kollektor) drenaj kanaliga ikkita suv chiqarish yo'li orqali chiqariladi. Bitta suv chiqarish yo'lidan tozalashni talab qilmaydigan toza oqava suv chiqariladi (260 m<sup>3</sup>/soat yoki 72 l/s). Ikkinchisidan tozalangan sanoat va maishiy oqava suvlar (109 m<sup>3</sup>/soat yoki 30 l/s) chiqariladi. Tozalash fizik, kimyoviy, mexanik va biologik jarayonlarni o'z ichiga oladi.

### *Atmosfera chiqindilari*

Gaz bilan ishlaydigan yonish uskunalar, shu jumladan kreking pechi, bug' qozonlari va mash'al qurilmalari majmuada atmosferaga tashlanadigan chiqindilarining asosiy manbalari hisoblanadi. Normal va dekokslash rejimdagi kreking pechlarida va qozonlarda ko'p miqdorda yoqilg'i gazining yonishi azot dioksidi (NO<sub>x</sub>), zarracha moddalar (PM10), karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>) va suv bug'ining emissiyasiga olib keladi. Yonish manbalaridan chiquvchi oltingugurt dioksidi (SO<sub>2</sub>) miqdori gazdag'i vodorod sulfidi (H<sub>2</sub>S) darajasiga bog'liq bo'lib, ko'pi bilan 20 mg/m<sup>3</sup> tashkil qiladi. Kreking pechlariidan chiqayotgan chiqindi gazlar (yuqorida ko'rsatilgan gazlar va suv bug'laridan iborat bo'lgan) miqdori odatiy va eng yuqori yuklamada ishlash rejimida mos ravishda 143 000 kg/soat va 160 000 m<sup>3</sup>/soat dan oshishi mumkin.

Yangidan barpo etiladigan ishlab chiqarishning yangi mash'ala qurilmasi qo'shilishi davriy tutun gazlar chiqindilarini oshiradi. Biroq, mash'ala chiqindilarning oshishi zavod quvvatining oshishi bilan mutanosib bo'lmaydi.

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I*****Qurilish strategiyasi***

ShGKMICHQK loyihasi uchun taklif etilayotgan qurilish strategiyasi 30-36 oylik qurilishni yakunlash va ishga tushirish dasturiga tayangan bo'lib, majmuaning yaqinida joylashgan hududda dastlabki yig'ish ishlarini joyida maksimallashtirishdan iborat. Qurilish ishchilar uchun mayjud turar joy lageridan foydalaniladi, uning tafsilotlari quyida keltirilgan:

- 5000 dan 6000 nafargacha qurilish ishchilariga joy;
- Yer maydoni taqriban 43 Gektar;
- Xizmat ko'rsatish zonalari (oshxona, do'konlar, kir yuvish, sport inshoatlari, tibbiy yordam punkti, va xok.) va avtomobil/avtobus to'xtash joyini o'z ichiga oladi.

**Qonunchilik bazasi**

ShGKMICHQK loyihasi va EITB quyidagi talablarga javob beradi:

- O'zbekistondagi ekologik me'yoriy standartlar va boshqaruv direktivalari
- Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK)ning (Jahon banki guruhi) Ijtimoiy va Ekologik samaradorlik standartlari va XMKning Ekoliya, salomatlik va xavfsizlik (ESX) bo'yicha Bosh ko'rsatmalari;
- Ekvator tamoyillari;
- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ning Umumiy yondashuvlariga (2016) asoslangan Yaxshi xalqaro sanoat amaliyotiga (YXSA), va
- SGKM va ularning hamkor kompaniyalarining korporativ talablari.

**Mavjud atrof-muhit holati*****Iqlim va chiqindilar***

O'zbekiston iqlimi yozi issiq va qishi salqin bo'lgan kontinental iqlimga ega. Loyiha maydoni sovuq yarim qurg'oqchil iqlim zonasida joylashgan.

1990 yildan 2012 yilgacha bo'lgan davr ichida mamlakatda issiqxona gazlari (IG) tashlanmalar miqdori 13,7 foizga oshgan. 2012 yilda jami to'g'ridan-to'g'ri IG tashlanmalar 205,2 million tonna CO<sub>2</sub> ekivalentini (CO<sub>2</sub>e) tashkil etdi. IG tashlanmalarning 82,4 foizi energetika sektori tomonidan ishlab chiqarilgan. Qishloq xo'jaligi va chiqindilar umumiy IG tashlanmalarining mos ravishda 14% va 18% ni tashkil qiladi. Mavjud havo sifati eng so'nggi monitoring nazorati Oltin Yo'l GTL EITB tadqiqotlari doirasida amalga oshirilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, loyiha hududida asosiy ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasi juda past va aksar hollarda atrof-muhit havosi sifati standartlardan bir necha barobar qamroq miqdorlarni tashkil qiladi.

***Geologiya, geomorfologiya va tuproqlar***

SGKM maydoni Hisor tog' tizmasining janubi-g'arbiy shoxlarning tog' oldi tekisligida joylashgan. O'rta to'rtlamchi prolyuvial qatlamlari majmua hududida hamma joyida namoyon bo'lib, sariq/qumli tuproq va



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

loyli qumlarni o'z ichiga oladi. 2017 yilda ShGKMChQK maydonida o'tkazilgan yer osti tekshiruvi bevosita maydon ostidagi qatlamlar geologiyasi quyidagilardan iboratligini ko'rsatdi:

- Qalinligi 10 m gacha bo'lган ustki tuproq va qumoq/sariq tuproq tipidagi qatlamlar;
- O'rta to'rtlamchi prolyuvial qatlamlari ichida gips mavjud bo'lган och jigarrang loy va qumdan iborat. Chuqurlikda joylashgan qatlamlar yengilgina sementlangan bo'lib, ichida gipsning tugunlari/tomirlari uchraydi.

Mavjud SGKM qurilishi davomida tabiiy tuproq qatlami olib tashlangan yoki qayta ishlangan. Yog'ingarchilik kam bo'lган yarim qurg'oqchil hudud sifatida kengroq hududdagi tuproqlar muvaffaqiyatli ekin yetishtirish uchun sug'orishni talab qiladi. Sug'orish sxemalari tuproqni sho'rash va tuproq strukturasini o'zgartirish orqali suv o'tkazuvchanligini pasaytirish va o'simliklarning o'sishiga ta'sir qilish orqali zarar yetkazishi isbotlangan.

O'zbekiston O'rta Osiyoning o'ttasida, yuqori seysmik faoliyat zonasida joylashgan. Loyiha maydoni O'zbekiston Seysmik kodeksi QMQ 2.01.03-96 "Seysmik zonalarda qurilish normalari va qoidalari" bo'yicha seysmikligi 7 ball bo'lган o'rtacha va yuqori xavfli seysmik faol hududda joylashgan. Loyiha maydonining hisoblash seysmik darajasi Rixter shkalasi bo'yicha 8 ballga teng.

### *Gidrologiya, gidrogeologiya va suv resurslari*

Tolimardjon suv ombori Qarshi magistral kanali bilan oziqlanadigan eng katta suv ombori bo'lib, uning sig'imi 1,5 mlrd. m<sup>3</sup>. QMK Qarshi tekisligini qamrab olgan oziqlantiruvchi kanallar va sug'orish ariqlarining keng tarmog'iga xizmat ko'rsatadi. Suv sug'oruvchilar va maishiy foydalanuvchilarni, shuningdek, SGKMni ta'minlaydi. Loyihadan taxminan 4 km shimoli-sharqda SGKM suv ombori joylashgan bo'lib, u SGKM uchun zaxira suv saqlashga xizmat qiladi, 11,5 mln.m<sup>3</sup> sig'imga ega. Suv ombori to'g'ridan-to'g'ri QMCda joylashgan nasos stansiyalar orqali to'diriladi. Suv ombori SGKM uchun zaxira suv ta'minoti bo'lishi bilan birga, undan SGKM atrofidagi daraxtzorlarini ("yashil hudud") sug'orish uchun ham foydalaniladi. SGKM suv ombori suv chetidan 20 m masofada belgilangan suvni muhofaza qilish zonasiga ega.

Loyihaga yaqin hududdagi yer osti suvlari qatlamlarning past o'tkazuvchanligi va umuman suv sifatining pastligi sababli suv ta'minoti uchun manba sifatida ko'rlishi mumkin emas.

### *Shovqin va tebranish*

Mavjud SGKM ob'yeqtleri loyiha hududida antropogen shovqinining asosiy manbalari hisoblanadi. Zavod joylashgan joydan shovqin tarqalishining dastlabki hisob-kitoblari shuni ko'rsatadiki, qurilish maydonchasi va undan taxminan 1000 m radiusdagi hudud yuqori darajadagi qurilish shovqiniga duchor bo'lishi mumkin. Zavodning normal ishlashi paytda shovqin ta'sir doirasi manbadan atigi bir necha yuz metr masofada bo'lishi mumkin, chunki uskunadan 1 m masofada shovqin darajasi 80 d(B)A dan oshmasligi kerak.

### *Biologik muhit*

### *Qo'riqlanadigan hududlar*

O'zbekiston hududida 23 ta qo'riqlanadigan tabiiy hududlar mavjud: 8 ta davlat qo'riqxonasi, 1 ta biosfera qo'riqxonasi, 2 ta Milliy bog', 12 ta davlat tabiiy qo'riqxonasi va 6 ta biologik xilma-xillikning muhim hududi. Loyiha hududiga eng yaqinlari Hisor tog' davlat qo'riqxonasi va Surxon tog'li o'rmon davlat qo'riqxonasi hisoblanadi.

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I*****Yer ekologiyasi***

Loyiha joylashgan hudud yarim cho'l botqoqli yerlar bilan tavsiflanadi. O'simlik qoplami asosan siyrap, o't va kichik butalardan iborat bo'lib, bulardan *Hordeum leporinum*, *Poa bulbosa*, *Vulpia persica* va *Poa* sp. kabi turlari ko'proq uchraydi. Istisno bo'lib maydoning shimoli-sharqidagi suv ombori atrofidagi hudud hisoblanadi. Suv ombori atrofidagi o'simliklar qamish va balandroq o'tlar bilan ifodalanadi. Loyiha hududidagi o'simliklar kam xilma-xillikni namoyish etadi. Yerning buzilgan joylarida, ya'ni ariqlar, buzilgan binolar atrofida, kashshof turlari aniqlangan, ular turlarning tarkibida odatda ustunlik qiladi.

***Umurtqasizlar***

O'zbekistondagi umurtqasizlar ichida eng katta guruohni bo'g'imoyoqlilar tashkil etadi, ularning asosiy qismini hasharotlar tashkil etadi. Qashqadaryo ma'muriy viloyatida to'rtta qo'riqlanadigan tur qayd etilgan; shuningdek 2017 yilda o'tkazilgan dala tadqiqoti davomida 29 ta tur kuzatilgan, ularning hech biri Tabiatni Muhofaza Qilish Xalqaro Ittifoqi tomonidan himoyalanmagan. O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan, 2VU:D (Zaif: Kamaymoqda) maqomiga ega *Glaucoptyschecharibdis* 2017 yilda o'tkazilgan tadqiqot davomida qayd etilgan.

***Sudralib yuruvchilar***

Qarshi dashtining cho'l hududlarida sudralib yuruvchilarning 26 ta turi qayd etilgan. Golders tomonidan 2010 yil 27 apreldan 4 maygacha o'tkazilgan tadqiqot davomida ikkita tur (*Testudo horsfieldii* – O'rta Osiyo toshbaqasi va *Varanus griseus caspius* – Kaspiy echkemar) loyiha maydonida qayd etilgan. *Testudo horsfieldii* (O'rta Osiyo toshbaqasi) va *Varanus griseus caspius* (Kaspiy echkemar) 2017 yilda o'tkazilgan tadqiqot davomida yana qayd etilgan, shuningdek, *Najaoxiana* (O'rta Osiyo kobrasi) va *Phrynocephaluselioscopus* (Qurbaqa boshli agama).

***Avifauna***

O'zining kattaligi hamda Yevropa va Osiyo o'rtasidagi markaziy joylashuvi tufayli O'zbekiston taxminan 500 dan ortiq turlardan iborat boy avifaunaga ega. Qushlarning qirq sakkiz turi (51 kenja turi bilan) O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan bo'lib, ularning bir qismi respublikaning janubi-g'arbiy qismida ko'payadi yoki qishlaydi. Qushlarning migratsiya yo'llari O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston orqali o'tadi. Ko'p sonli qushlar (ayniqsa, yovvoyi qushlar, yirtqichlar va turnalar) migratsiya paytida to'xtash uchun qulay yashash joylaridan foydalanadilar. O'zbekiston hududida 47 ta muhim qushlar hududi aniqlangan. Tolimarjon suv ombori va Hisor tog' tizmalarining janubi-g'arbiy etaklari Loyihaga yaqin joyda joylashgan (16km va 24km mos ravishda). Keyingi o'n yilliklarda Qarshi dashtida bir qancha suv havzalari yaratildi. Bu suv omborlari ko'chmanchi qushlar uchun yaxshi to'xtash joylarini ta'minlaydi. 2010 yilda Qarshi dashtida 23 ta tur kuzatilgan (O'zbekiston Qizil kitobi yoki Tabiatni Muhofaza Qilish Xalqaro Ittifoqi ostidagi). Qizil ro'yxatga kiritilgan turlarning (*Phalacrocorax pygmaeus*) yagona vakili 2017 yilda o'tkazilgan tadqiqot davomida SGKM suv ombori yaqinida qayd etilgan. Talimarjon suv ombori yaqinida qushlar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida suv omborining naslchilik jamiyatni sust ekanligi aniqlandi. Hisor tog' tizmalarining janubi-g'arbiy etaklarida bahorgi migratsiya uchun muhim ahamiyatga ega. Ko'chmanchi qushlar ro'yxati taxminan 240-250 ta turni, shu jumladan ko'p sonli Demoiselle turnasi (*Grus virgo*), ba'zi yillarda 20 000 dan ortiq qushlarni o'z ichiga oladi, bu butun dunyodagi qushlar populatsiyasining taxminan 10% ni tashkil qiladi.

***Sutemizuvchilar***



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

O'zbekistonda mavjud bo'lgan fauna turlariga tarixiy o'tmishda bu yerga boshqa mintaqalardan, jumladan O'rta Osiyo cho'l va tog'lari, Hind-Xitoy, Qozog'iston yaylovlari, Sibir, Janubiy Yevropa va Shimoliy Afrikadan ko'chib kelgan guruqlar kiradi. Hozirgi kunda O'zbekistonda sut emizuvchilarning 108 ta turi mavjud. 108 ta turdan 23 ta turi Qarshi dashtida, xususan, loyiha maydoni va uning atrofidagi hududda kuzatilishi mumkin. Loyerha maydonida va unga tutash hududlarda o'rganish davomida faqat quyidagi turlar qayd etilgan: *Spermophilus fulvus* (sariq yer olmaxon), *Lepus tolai* (Tolay quyon), *Vulpes corsac* (korsak tulki) va *Hemiechinus auritus* (uzun qulqlı tipratikan). Bundan tashqari, kenguruli kalamush kuzatilgan (*Dipodomys* spp - turlari aniqlanmagan) va katta yirtqich hayvonlarning mavjudligini tasdiqlovchi dalillar, ehtimol, chiziqli giyena (*Hyaena hyaena*).

### Suv ekologiyasi

O'zbekiston asosan qurg'oqchil cho'l iqlimiga ega mamlakatlarning aksariyat suvlari yomg'irgarchilik va tog'lardan qor erishi natijasida olinadi. Suv omborlari odatda mart-aprel oylarida to'ldirila boshlaydi va 40-80 kun ichida eng yuqori darajaga yetadi. Suv omborlari yozda sug'orish uchun quritiladi va sentabrgacha suvning minimal darajasiga yetadi (Komilov va Urchinov, 2016 yil 12 sentyabrda baholangan). Suvning sho'rланish darajasi tog' etaklaridan pasttekislikkacha asta-sekin oshib borishiga qaramay, gidrologik ko'rinishi va suv kimyoviy tarkibi baliqlar uchun ma'qul bo'lmoqda. O'rta Osiyoda suv va botqoq o'simliklarining 819 ta turi (561 tasi – qirg'oq, 132 tasi – yarim suv osti, 128 tasi – suv osti) borligi taxmin qilingan bo'lib, ulardan 39 tasi chara, 62 tasi mox, 17 tasi paporotnik va 701 tasi tomirli gulli o'simliklardir. Zooplankton turlari orasida kolovratkalar, kladotseralar va kopepodlar ustunlik qiladi. Bentos turlarining tarkibi suv havzasi va faslga qarab turlicha bo'ladi (Komilov va Urchinov, 12.09.2016 y.). SGKM suv omborida suv florasi va faunasining Qizil kitobidagi turlari kuzatilmagan.

### Kritik tabiiy muhitlar

2017 yilda o'tkazilgan tadqiqot hududda uchta asosiy tabiiy muhit mavjudligini tasdiqladi, ularning hech biri Kritik tabiiy muhit sifatida belgilanmagan:

- Cho'lli tabiiy muhit;
- Dashtli tabiiy muhit;
- SGKM suv ombori.

### Ijtimoiy muhit

#### Mintaqaviy va mahalliy demografiya

Qashqadaryoning umumiy aholisi 3,34 million kishi bo'lib, aksariyati poytaxt Qarshi shahrida to'plangan (Davlat Statistika Qumitasi, 2021). G'uzor tumanida 212,400 nafar aholi istiqomat qiladi (Davlat Statistika Qumitasi, 2021). Loyerha maydonidan 3 km uzoqlikda joylashgan Otquduq aholisi 500 kishidan iborat. Loyerha maydonidan taxminan 20 km uzoqligidagi Eshonquduq MFY o'z ichiga shuningdek Kengsoy va Adbuhamit qishloqlarini oladi. Enshonquduq Mahallasida yashovchilar soni 4,032 kishidan iborat.

O'zbekistondagi barcha hududlar/viloyatlar ichida ushbu mintaqqa eng yuqori qashshoqlik darajasiga hamda "nochor" deb hisoblanadigan eng yuqori aholi ulushiga ega (Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi, 2007 yil). Mahalliy rahbarlar bilan muloqot shuni ko'rsatadiki, eng zaif guruqlarni ma'lumot darajasi past bo'lgan qishloq aholisi tashkil etadi, ayniqsa ayollar (Golders, 2014).



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

So'nggi 24 yilda Qashqadaryodan ko'chib ketish darajasi pasaygan. 2015 yilda ichki va tashqi emigrantlar soni 1991 yildagi 21 163 kishiga nisbatan 11 489 kishini tashkil etdi (Rivojlanish ko'rsatkichlari, 2012-2015 yillar). Rasmiy statistik ma'lumotlar mavjud bo'lmasa-da, manfaatdor tomonlar bilan olib borilgan munozaralar shuni ko'rsatadiki, hozirgi tendentsiyalar yoshlar qishloqlardan kattaroq shaharchalar va shaharlarga ketishlarini ko'rsatmoqda (Golder intervyulari, 2010 va 2013 yillar). 1991-2015 yillarda Qashqadaryodan immigratsiya ko'rsatkichlari ham kamaydi, ya'ni 1991 yilda viloyatga kelgan 20,639 kishidan 2015 yildagi 11,598 kishigacha (Rivojlanish ko'rsatkichlari, 2012-2015 yillar). Ushbu o'sish tendensiyalari hozirda han saqlanib kelmoqda.

### *Mintaqaviy iqtisodiy profil*

Qashqadaryo viloyati o'zining tabiiy boyliklari bilan mamlakatdagi eng yirik uglevodorod konlari bilan mashhur bo'lib, unda O'zbekistonidagi gazni qayta ishlashga ixtisoslashgan yirik korxonalar – Sho'rtan Gaz Kimyo Majmuasi (SGKM), Sho'rtan gazni qayta ishlash zavodi va Muborak gazni qayta ishlash zavodi (Golders, 2014) faoliyat ko'rsatmoqda. Yaqinda qurib bitkazilgan "Uzbekistan GTL" zavodi ham shular jumlasidandir. Mintaqa, shuningdek, katta qishloq xo'jaligi resurslariga ega (Golders, 2014).

### *Mintaqaviy tirikchilik vositalari*

Taklif etilayotgan loyihaga eng yaqin joylashgan Nishon tumanidagi Otquduq hamda G'uzor tumanidagi Enshonquduq va Abduhamit aholi punktlari aholisining turmush tarzi juda o'xhash va asosan chorvachilikka asoslangan (Golders, 2014). Iqlim sharoitiga ko'ra, ko'pchilik fermerlar qo'y va echki boqishadi, chunki ularni boqish arzonroqdir. Ko'pchilik hayvonlar G'uzor yoki Qarshidagi bozorlarga olib ketiladi. Ko'pgina oilalar shaxsiy iste'mol uchun tovuq va kurka boqadi (Golder intervyulari, 2010).

### *Mintaqaviy yerdan foydalanish*

Mahalliy darajada yer hukumatga tegishli va 30 yildan 50 yilgacha ijara ga beriladi. SGKM loyihasi tomonidan foydalaniladigan yer hukumat mulki bo'lib, Loyiha chegaralarida xususiy ijara ga berilmaydi (Golders, 2014).

Sho'rtan ixtisoslashtirilgan o'rmon xo'jaligi Amarant oilasiga oid (Amaranthaceae) o'simliklari ekiladigan SGKM zavodidan taxminan 2 km shimoli-g'arbda joylashgan. SGKM hududi atrofidagi saksovulzorlar taxminan 200 hektar maydonni egallagan. Loyiha maydonidan 10 km radiusda joylashgan yerlarning muhim qismi qurg'oqchil cho'ldir.

### **Ta'sirni baholash metodologiyasi**

Ta'sirlar ShGKMIChQK loyihasi qurilishi va ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan jismoniy, biologik va/yoki ijtimoiy-iqtisodiy muhitdagi jismoniy o'zgarishlar sifatida belgilanadi, va ular vaqt va masofa o'tgan sari turli miqyoslarda va ko'lamlarda sodir bo'ladi. Ta'sirlarning ahamiyati ta'sirning kattaligi, retseptorlarning sezuvchanligi va ta'sir qilish ehtimolini hisobga olgan holda aniqlangan. Bu ta'sirni kamaytirish yoki bartaraf etish uchun loyiha rejasiga kiritilgan chora-tadbirlarni hisobga olgan holda yumshatishdan oldin ham, yumshatishdan keyin ham amalga oshirildi. Agar ta'sirni baholash yuqori yoki o'rtacha ahamiyatga ega ta'sirlarni aniqlagan bo'lsa, ta'sirlarni yetarli darajada kompensatsiya qilish uchun loyihalash elementlari bilan birgalikda qo'shimcha yumshatish choralarini ko'rib chiqiladi. Ta'sirning ahamiyat darajasi Ta'sirning ahamiyati natijasi retseptorlarning sezgirligiga nisbatan ta'sir qiymatini reytinglash orqali aniqlanadi (Jadval A).



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

Jadval A– Ta'sirning ahamiyati

RETSEPTORLARING SEZGIRLIGI					
TA' SIR QIYMATI (Ejtimoliikkni hashish olgan holda)Likelihood)	JUDA KAM	PAST	O'RTACHA	YUQORI	
JUDA KAM	Ahamiyatsiz	Ahamiyatsiz	Ahamiyatsiz	Past / Ahamiyatsiz*	
PAST	Ahamiyatsiz	Past	O'rtacha / Past	O'rtacha	
O'RTACHA	Ahamiyatsiz	Moderate / Past	O'rtacha	Yuqori	
YUQORI	Past	O'rtacha	Yuqori	Yuqori	

EITB “O'rtacha” yoki “Yuqori” deb qayd etilgan salbiy ta'sirlarni kamaytirish uchun imkonlarni amaliy va tejamkor choralarни taklif qilish orqali aniqlaydi. Yumshatish choralar uzoq muddatli foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarni hamda ularning samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan monitoringni o'z ichiga oladi.

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I****Dastlabli Ekologik va ijtimoiy boshqaruv va monitoring rejası**

Qurilish, ekspluatatsiya va ekspluatatsiyadan chiqarish bosqichlari uchun ta'sirni baholash jarayonida aniqlangan barcha yumshatish, boshqarish choralari va majburiyatlar Ekologik va Ijtimoiy Boshqaruv va Monitoring Rejasiga kiritilgan (EIBMR). EIBMR aniqlangan muhim salbiy ta'sirlarning oldini olish, maqbul darajagacha kamaytirish va bartaraf etish, hamda ijobiy ta'sirlarni rag'batlantirish va kuchaytirish uchun zarur bo'lgan choralarni belgilaydi. Bular SGKMning ichki siyosatiga ham, mahalliy Sog'likni saqlash, mexnat xavfsizligi va ekologiya standartlariga/yo'riqnomalariga ham javob beradi, va ular mavjud bo'lmagan hollarda, xalqaro standartlar/qo'llanmalar qo'llaniladi. Loyihani loyihalashtirish bosqichida aniqlanadigan boshqa har qanday qo'shimcha talablar ham Ekologik va Ijtimoiy Boshqaruv va Monitoring Rejasiga yangilash orqali kiritib boriladi.

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**

Jadval B: Qurilish bilian bog'liq ta'sirlar va yumshatish chora-tadbirlari

LOYIHA FAOLIYATI / ASPEKT	POTENSIAL TA'SIR	RETSEPTOR	TA'SIR AHAMIYATI YUMSHATISH CHORALARI OLDIN	TA'SIR AHAMIYATI YUMSHATISH CHORALARIDAN KEYIN	YUMSHATISH CHORA-TADBIRLARI	MONITORING / O'LCHOV	MA'SUL	SAMARADORLIK KO'RSATKICHI
<b>Qurilish: Maishiy chiqindilar</b>	Tuproq va suv sifatiga ta'siri, vizual ta'siri, ijtimoiy ta'siri, faunaga ta'siri	Tuproq, suv, landshaft, jamiyat, hayvonot dunyosi	<b>YUQORI</b>	<b>O'RTACHA</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Loyihaning integratsiyalashgan chiqindilarni boshqarish tizimi.</li> <li>- Barcha xavfli bo'lмаган chiqindilar O'zbekiston va SHGKM chiqindilarni boshqarish amaliyotiga muvofiq boshqariladi.</li> </ul>	Aniqlangan chiqindilarni noto'g'ri ishlash holatlari haqida / Ichki tekshiruvlar	Pudratchi	0 chiqindilar bilan noto'g'ri ishlash holatlari qayd etilgan / Loyiha chiqindilarini boshqarish tartib-qoidalariiga rioya qilinganligini ko'rsatuvchi tekshiruvlar
<b>Qurilish: Qurilish ishchilarining oqimi</b>	Ayollar xavfsizligi	Jamiyat va ishchi kuchi	<b>YUQORI</b>	<b>O'RTACHA</b>	Ushbu ta'sirni yumshatish choralari ijtimoiy boshqaruv rejasining bir qismi sifatida amalga oshiriladi.Ishchilarни jamiyat va kompaniyaning ishchilarining xatti-harakatlaridan kutganlarini ko'rsatadigan zarur to'plam / o'quv-treninglar bilan ta'minlash. Odob-axloq qoidalarini nomaqbtlar xatti-harakatlarga nisbatan murosasizlik va intizomiy tartiblarni o'z ichiga oladi.Muammolar/izohlarni ro'yxatga olish uchun aholi uchun shikoyatlar mexanizmini qo'llab-quvvatlash.	Hodisa hisoboti	Pudratchi / SHGKM	Kirish yo'riqnomasidan o'tgan qurilish ishchilarining foizi - Maqsad 100% / Barcha xodimlar Xulq-atvor qoidalarini imzolanganligi / 0 ta nomaqbtlar xatti-harakatlar hodisasi qayd etilganligi
<b>Qurilish: Qurilish ishchilarining oqimi</b>	Spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar	Jamiyat va ishchi kuchi	<b>YUQORI</b>	<b>O'RTACHA</b>	Ushbu ta'sirni yumshatish choralari ijtimoiy boshqaruv rejasining bir qismi sifatida amalga oshiriladi.Xulq-atvor qoidalariga giyohvand moddalar va spiritli ichimliklarni iste'mol qilishga murosasiz kurashni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumot yo'riqnomaga bo'yicha o'quv-treningiga kiritiladi Xodimlar orasida giyohvandlik va spiritli	Hodisa hisoboti	Pudratch	Kirish yo'riqnomasidan o'tgan qurilish ishchilarining foizi - Maqsad 100% / Barcha xodimlar Xulq-atvor qoidalarini imzolanganligi/ 0 ta nomaqbtlar xatti-

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**

LOYIHA FAOLIYATI / ASPEKT	POTENSIAL TA'SIR	RETSEPTOR	TA'SIR AHAMIYATI	TA'SIR AHAMIYATI	YUMSHATISH CHORA-TADBIRLARI	MONITORING / O'LCHOV	MA'SUL	SAMARADORLIK KO'RSATKICHI
			YUMSHATISH CHORALARI OLDIN	YUMSHATISH CHORALARIDAN KEYIN	ichimliklar bo'yicha tasodifiy sinovlar o'tkaziladi. Ish vaqtidan tashqari spirtli ichimliklarsiz dam olishni targ'ib qilish.			harakatlar hodisasi qayd etilganligi / Giyohvand moddalar va/yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilmaslik holatlari bo'yicha ijobjiy natijalar
<b>Quraish: Qurilish ishchilarining oqimi</b>	Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarning ko'payishi va mahalliy tibbiyot muassasalarining kurashish qobiliyati	Jamiyat va ishchi kuchi	<b>YUQORI</b>	<b>O'RTACHA</b>	Ushbu ta'sirni yumshatish chora-tadbirlari Ijtimoiy boshqaruv rejasining bir qismi sifatida amalga oshiriladi.  Qo'shimcha ishchi kuchi uchun joylarda tibbiy xizmat ko'rsatish Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish rejasining bir qismi sifatida mintaqaviy sog'liqni saqlash / favqulodda xizmatlar bilan hamkorlik qilish	Hodisa hisoboti	Pudratchi / SHGKM	Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartib-qoidalari har yili ishlab chiqiladi va ko'rib chiqiladi / Mintaqaviy tibbiyot muassasalari bilan tuzilgan shartnomalar
<b>Qurilish: Qurilish ishchilarining oqimi</b>	Yo'l-transport hodisalari	Jamiyat va ishchi kuchi	<b>YUQORI</b>	<b>O'RTACHA</b>	Ushbu ta'sirni yumshatish choralarini Qurilishni boshqarish rejasining Sog'liqni saqlash va xavfsizlikni boshqarish rejasining bir qismi sifatida amalga oshiriladi. Yo'l harakati boshqaruvi rejasini baxtsiz hodisalar xavfini kamaytirish choralarini va xodimlar va aholi uchun yo'l harakati xavfsizligini xabardor qilish tashabbuslarini taqdim etadi.	Hodisalar hisoboti	Pudratch	0 ta yo'l-transport hodisasi
<b>Qurilish: Qurilish ishchilarining oqimi</b>	Inflyatsiya, asosiy uy-ro'zg'or buyumlari narxining oshishi	Jamiyat va ishchi kuchi	<b>YUQORI</b>	<b>O'RTACHA</b>	Inflyatsiyaning ta'siri mahalliy aholiga ta'sir qilmasligi uchun ishchilar lagerida mahalliylashtirishga qaratilgan bo'lib, ishchilar o'z mahsulotlarini sotib olishlari uchun ishchilar lageri ichida	Narxlarning oshishi haqida hisobot	Pudratchi / SHGKM	Mahalliy bozorlarda asosiy tovar va xizmatlar narxi oshmag'anligi yo'q

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**

LOYIHA FAOLIYATI / ASPEKT	POTENSIAL TA'SIR	RETSEPTOR	TA'SIR AHAMIYATI	TA'SIR AHAMIYATI	YUMSHATISH CHORA-TADBIRLARI	MONITORING / O'LCHOV	MA'SUL	SAMARADORLIK KO'RSATKICHI
			YUMSHATISH CHORALARI OLDIN	YUMSHATISH CHORALARIDAN KEYIN	do'kon (lar)ni taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Jamiyat bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis (JAM) bilan muntazam maslahatlashuvlar orqali inflyatsiya ta'sirini baholash uchun rasmiy monitoring tizimi ishlab chiqiladi. JAMning fikr-mulohazalarini narxlarning oshishi bo'yicha xulosalarni o'z ichiga oladi, mahalliy bozorlarda asosiy tovarlar va xizmatlar narxlarini har oyda kuzatib borish uchun yanada rasmiy monitoring tizimi ishlab chiqiladi. Bu inflyatsiyaning mahalliy ta'sir ko'rsatishi yoki yo'qligini aniqlash uchun mahalliy va mintaqaviy tadqiqotlar doirasida amalga oshiriladi.			

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**

Jadval C: Ekspluatatsion ta'sirlar va yumshatish chora-tadbirlari

LOYIHA FAOLIYATI / ASPEKT	POTENSIAL TA'SIR	RETSEPTOR	TA'SIR AHAMIYATI YUMSHATISH CHORALARIDAN OLDIN	TA'SIR AHAMIYATI YUMSHATISH CHORALARIDAN KEYIN	YUMSHATISH CHORA-TADBIRLARI	MONITORING / O'LCHOV	MA'SUL	SAMARADORLIK KO'RSATKICHI
<b>Ekspluatatsiya: Issiqxona gazlari</b>	Iqlim o'zgarishi	Atmosfera	O'RTACHA	O'RTACHA	Amaldagi standartlar va talablarga muvofiq loyihalash	Havo sifati monitoringi	SHGKM	PM, Nox, Sox, CO emissiyalarining maksimal va o'rtacha kontsentratsiyalari belgilangan miqdordan pastligi
<b>Ekspluatatsiya: Suv havzasidagi bug'lanish (kumulyativ)</b>	Suv havzasining sho'rlanishi	Suv havzasining suv ekologiyasi	YUQORI	O'RTACHA	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Suv iste'molini va QMKdan suv olishni minimallashtirish uchun oqava suvlarni texnologik maqsadlarda ishlatalish uchun qayta ishlash</li> <li>- Suv tejamkor uskunalar/fiksatorlarni baholash uchun unumdor loyihalashtirish;</li> <li>- suvni tejash va sug'orishni kamaytirish uchun tomchilatib sug'orish usulini qo'llash uchun sug'orish;</li> <li>- mahalliy hududlarda suvdan samarali foydalananish choralar</li> </ul>	Er ubti suvlari monitoringi  Suv ekologiyasi monitoringi	SHGKM SHGKM	Sho'rlanganlikni o'zgarmasligi  Asosiy tarkibning o'zgarmasligi
<b>Ekspluatatsiya: Suv havzasidagi bug'lanish (kumulyativ)</b>	Suv rezervuarining sho'rlanishi	Quruqlik ekologiyasi	YUQORI	O'RTACHA	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Suv iste'molini va QMKdan suv olishni minimallashtirish uchun oqava suvlarni texnologik maqsadlarda ishlatalish uchun qayta ishlash</li> <li>- Suv tejamkor uskunalar/fiksatorlarni baholash uchun unumdor loyihalashtirish;</li> </ul>	Er ubti suvlari monitoringi  Quruqlik ekologiyasi monitoringi	SHGKM SHGKM	Sho'rlanganlikni o'zgarmasligi  Suv havsazida yoki unga tutash hududlarda suvning asosiy tarkibining o'zgarmasligi

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**

			<ul style="list-style-type: none"> <li>- suvni tejash va sug'orishni kamaytirish uchun tomchilatib sug'orish usulini qo'llash uchun sug'orish;</li> <li>- mahalliy hududlarda suvdan samarali foydalanish choralarini</li> </ul>
--	--	--	--

Jadval D: Ekspluatatsiyadan chiqarish bilan bog'liq ta'sirlar va yumshatish chora-tadbirlari

LOYIHA FAOLIYATI / ASPEKT	POTENSIAL TA'SIR	RETSEPTOR	TA'SIR AHAMIYATI YUMSHATISH CHORALARINI OLDIN	YUMSHATISH CHORALARIDAN KEYIN	YUMSHATISH CHORA-TADBIRLARI	MONITORING / O'LCHOV	MA'SUL	SAMARADORLIK KO'RSATKICHI
Ekspluatatsiyadan chiqarish: Suv havzasini yopish	Suv havzasida suv yuq	Suv havzasining suv ekologiyasi	YUQORI	O'RTACHA	Ekologik salohiyatni baholash uchun foydalanishdan chiqarishni boshqarish rejasini	Yer usti suvlarining monitoringi  Suv ekologiyasi monitoringi  Abstrakt o'lchov	SHGKM  SHGKM  SHGKM	Sho'ranganlikni o'zgarmaganligi  Asosiy tarkibning o'zgarmasligi  Suv samaradorligi yiliga 10% istemolni kamaytirish maqsadi va Sanoat benchmarkida eng yaxshi 10%
Ekspluatatsiyadan chiqarish: Suv havzasini yopish	Suv havzasida suv yuq	Quruqlik ekologiyasi	YUQORI	O'RTACHA	Ekologik salohiyatni baholash uchun foydalanishdan chiqarishni boshqarish rejasini	Yer usti suvlarining monitoringi	SHGKM	Sho'ranganlikni o'zgarmaganligi

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**

LOYIHA FAOLIYATI / ASPEKT	POTENSIAL TA'SIR	RETSEPTOR	TA'SIR AHAMIYATI YUMSHATISH CHORALARINI OLDIN	TA'SIR AHAMIYATI YUMSHATISH CHORALARIDAN KEYIN	YUMSHATISH CHORA-TADBIRLARI	MONITORING / O'LCHOV	MA'SUL	SAMARADORLIK KO'RSATKICHI
						<p>Suv ekologiyasi monitoringi</p> <p>Abstrakt o'lchov</p>	<p>SHGKM</p> <p>SHGKM</p>	<p>Asosiy tarkibning o'zgarmasligi</p> <p>Suv samaradorligi yiliga 10% iste'molni kamaytirish maqsadi va Sanoat benchmarkida eng yaxshi 10%</p>



**WorleyParsons**

resources & energy



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

---

SAHIFA ATAYLAB BO'SH

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I****1. KIRISH****1.1 Sho'rtan Gaz Kimyo Majmuasi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish loyihasi to'g'risida ma'lumot**

Sho'rtan Gaz Kimyo Majmuasi (ShGKM), O'zbekiston Respublikasi. Qashqadaryo viloyatida joylashgan (1-rasm), Uzbekneftgaz tasarrufidagi 2001-yildan beri ishlab turgan mavjud zavoddir. ShGKM ni kengaytirish loyihasi – polietilen ishlab chiqarish umumiyligi quvvatini oshirish va qushimcha polipropilen ishlab chiqarishni amalga oshirish nazarda tutilgan. Kengaytirish loyihasini 2025 yilning Dekabr oyida ishga tushirish rejalashtirilgan.

Sho'rtan gaz kimyo majmuasi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish loyihasi (ShGKMICHQK) uchun Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash (EITB) hisobotni o'z ichiga oladi. Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash hisoboti (EITB) yaxshi xalqaro sanoat amaliyoti (YaXSA), ya'ni xalqaro moliya korporatsiyasining ishlash standartlari (IFC, 2012), Jahon bankining EHS bo'yicha ko'rsatmalari (2007) va iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) umumiyligi yondashuvlariga (2016) muvofiq tayyorlangan.

Alovida tayyorlangan (boshqalar tomonidan) ekologik ta'sirni baholash (ETB) O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy bazasiga va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va Atrof Muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va YaXSA talablariga javob berishi kerak.


Ushbu bob ShGKMICHQK ning umumiyligi tafsifi, EITB hisobotining ko'lami va maqsadlarini, ShGKMICHQK ni joriy qilish rejasi va mazkur EITB ning umumiyligi tuzilishi va mazmuni taqdim etadi.

**1.2 Loyihaning umumiyligi ta'rifi****1.2.1 Joylashgan o'rni**

ShGKM loyihasi yer maydoni O'zbekiston Respublikasining janubi-g'arbiy qismida, Turkmaniston bilan chegara yaqinida joylashgan. Ushbu maydon Toshkent shahridan taxminan 430 km va Qarshi shahridan 33 km janubi-g'arbda joylashgan (1-rasm va 2-rasm). Loyiha obyekti Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani hududida joylashgan. Loyihalashtirish asoslariga muvofiq, obyekt joylashushi koordinatalari taxminan 38,2735° N, 65,4812° D (Ref. WP, 2017). Obyekt dengiz sathidan taxminan +425 m balandlikda joylashgan.



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I



1 ShGKM joylashuvi. (Manba: [www.bing.com/maps](http://www.bing.com/maps))



2 ShGKM hududiy joylashuvi. (Manba: [www.bing.com/maps](http://www.bing.com/maps))

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I****1.2.2 Qurilish maydoni tarixi**

ShGKM zavodining qurilishi 1998 yilda boshlangan. ShGKM ishlab chiqarish faoliyati 2001 yilda boshlangan, zavod hozirgi kunda 21 yoshda. Bugungi kunga qadar, hech qanday muhim modernizatsiya ishlari yoki boshqa loyiha ishlab chiqilmagan.

**1.2.3 Loyiha hududi**


ShGKM zavodi joylashgan hudud asosan rivojlanmagan. Ob'ektga eng yaqin aholi punktlari 6 km va 10 km uzoqlikdagi O'tquduq va Navbahor qishloqlaridir. Bundan tashqari, zavoddan 3 km masofada ikkita ishchilar yashash lageri ham mavjud. Atrofdagi yerlarning katta qismi ekinsiz; ammo Navbahor qishlog'ida ShGKM ishchilarini mahsulot bilan ta'minlash bilan bog'liq rasmiy qishloq xo'jaligi yerlari mavjud. Sho'rtan ixtisoslashtirilgan o'rmon xo'jaligi ham ShGKM zavodidan taxminan 2 km shimoli-g'arbda joylashgan. ShGKM hududi hududida mavjud xizmatlar va infratuzilmaga xizmat ko'rsatuvchi temir yo'l va milliy elektr tarmog'i kiradi. Suv to'g'ridan-to'g'ri QMKdan (Qarshi magistral kanali) ta'minlanadi va ob'ektdan 4 km dan kamroq masofada joylashgan ShGKM suv ombori tomonidan ta'minlangan zaxira suv ta'minoti mavjud.

**1.2.4 Amalga oshirish grafigi**

ShGKMIChQK loyihasi hozirda bat afsil loyihalashtirish bosqichida va modernizatsiya qilingan va yangi ob'ektlarni ishga tushirish 2025-yil dekabriga rejalashtirilgan. ShGKMIChQKn amalga oshirish grafigi quyidagi 3-rasmda ko'rsatilgan.



**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**



3 ShGKMICHQK loyihasining yuqori darajadagi amalga oshirish grafigi.

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I****1.3 Loyiha tashabbuskori****1.3.1 Uzbekneftegaz**

ShGKM UNG tomonidan boshqariladi. UNG — O'zbekiston milliy neft va gaz kompaniyasi. Uning ishlab chiqarilishi asosan ichki va qishloq xo'jaligi bozoriga yo'naltirilgan (Manba: <http://www.uzneftegaz.uz/en/about>).

**1.3.2 SHGKM**

ShGKM mas'uliyati cheklangan jamiyat bo'lib, "Uzbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyatiga tarkibiga kiradi .

**1.4 Amalga oshirish zarurati**

ShGKM tomonidan boshqarilayotgan hozirgi zavod Sho'rtan konidan olinadigan tabiiy gazdan foydalaniladi, etan ajratish va 140 ming tonna etilen ishlab chiqarilib, so'ngra asosiy mahsulot sifatida 125 ming tonnagacha past zichlikdagi polietilen (LLDPE) ishlab chiqariladi. Tabiiy gazning istiqbolli baholash natijasiga kura, etan ulushi 60% gacha oshgani, uni qayta ishlash orqali qo'shimcha 80 ming tonna etilen olish mumkinligi aniqlandi. GTL zavodidan 430 ming tonna nafta yetkazib beriladi. ShGKMIChQK loyihasida 285 ming tonna etilen va 100 ming tonna propilen ishlab chiqarish uchun gazlarni ajratish qurilmasi, nafta va ortiqcha etanni qayta ishlash uchun kreking pechlarini o'rnatadi. Ushbu qo'shimcha etilen va propilen bilan ShGKM qo'shimcha 280 ming tonna yuqori zichlikdagi polietilen mahsuloti va 100 ming tonna polipropilen mahsuloti ishlab chiqarish uchun yangi bimodal polietilen va polipropilen blokini o'rnatish niyatida. Etilen/Propilen qurilmasi qo'shimcha mahsulot sifatida vodorodlangan piroлиз gaz ishlab chiqaradi.

ShGKMIChQK loyihasi tugallanmagan holda, joriy polietilen ishlab chiqarilishi, uskunani, dizayn texnologiyasini yoki politeilen ishlab chiqarishni o'zgartirmasdan yoki modernizatsiya qilmasdan hozirgi darajada davom etadi.

**1.5 Loyiha uchun EITB talablari****1.5.1 Xalqaro moliya**

ShGKM ni kengaytirish loyihasi xalqaro moliyalashtirishga bo'g'liq (yozish vaqtida moliyalashtirishni ta'minlaydigan muayyan moliyaviy institular tasdiqlanishni kutayotganini ta'kidlab o'tish kerak).

Shunday qilib, ushbu EITB hisoboti quyidagi sanab o'tilgan YaXSA ga muvofiq tayyorlangan; ekologik va ijtimoiy standartlar va ko'rsatmalar:

- Ekvator tamoyillari (2013);
- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) umumiy yondashuvlar;
- Jahon bankining EHS bo'iyicha ko'rsatmalari
- Xalqaro moliya korporatsiyasining ishlash standartlari (IFC-PS) 1 dan 8 gacha (IFC 2012)

Ushbu EITB hisoboti "WorleyParsons (WP) Europe Limited" tomonidan yuqorida hujjatlashtirilgan IHTT, standartlar va ko'rsatmalarga muvofiq tayyorlangan.



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

### 1.5.2 EITBning maqsadi va amalga oshirish

Ekvator tamoyillariga, IHHT umumiyligiga yondashuvlariga va IFC-PS 1 – Ekologik va ijtimoiy xavflar va ta'sirlarni baholash va boshqarish (IFC 2012) ga muvofiq ushbu EITB maqsadlari quyidagicha belgilanadi;

- “Loyihaning ekologik va ijtimoy xavflari va ta'sirni aniqlash va baholash;
- Hafni oldini olish uchun yumshatish ierarxiyasini qabul qilsih yoki uni bartaraf qilish iloji bo'lmasa, minimallashtirish va qoldiq ta'sirlar saqlanib qolgan bo'lsa, ishchilar, zarar ko'rgan hamjamiyat va atrof-muhit uchun xavf va ta'sirlarni qoplash;
- Boshqaruv tizimlaridan samarali foydalanish orqali mijozlarning ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarni yaxshilashga ko'maklshish;
- Zarar ko'rgan hamjamiyat shikoyatlari va boshqa manfaatdor tomonlarning tashqi aloqalari tegishli tarzda ko'rib chiqilishi va boshqarilishini ta'minlash; va
- Loyha tsikli davomida zarar ko'rgan jamoat bilan ularga potentsial ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan masalalar bo'yicha tegishli hamkorlikni ta'minlash hamda tegishli ekologik va ijtimoiy ma'lumotlarning oshkor etilishi va tarqatilishini ta'minlash (IFC, 2012).”

### 1.5.3 EITB tuzilmasi

Quyidagi 1-jadvalda ShGKMIChQK loyihasi uchun ushbu EITB hisobotining tuzilishi keltirilgan.

*1-jadval – EITB hisobotining tuzilishi*

Bob	Tarkib tavsifi
0	Texnik bo'limgan xulosa
	EITB yakuniy hisobotining qisqacha mazmuni va aniqlangan asosiy asosiy muammolar
1	Kirish
	Kirish qismida obyekt ma'lumotlari, EITBning joylashuvi va maqsadlari haqida umumiy ma'lumot berilgan
2	Taklif etilayotgan qurilish tavsifi
	Ushbu bob kengaytirish faoliyatining tavsifini beradi va qurilish, foydalanish va foydalanishdan chiqarishning hayot aylanishi bosqichlarida materiallar va xizmatlarni kiritish, chiqindi materiallarni chiqarish, chiqindillar va chiqindilar uchun uchun prognozli talablarni o'z ichiga oladi.
3	Muqobil variantlarni ko'rib chiqish
	Ushbu bo'limga muqobil usullar/ uskunalar va texnologiyalar, ob'ektlarini loyihalash tasdiqlanadi, shuningdek, "loyihasiz" variant ko'rib chiqariladi. Loyihaning muqobil variantlari bilan bogliq o'ziga xos ekologik va ijtimoiy muammolar ko'rsatilgan
4	Huquqiy va me'yoriy baza
	Huquqiy va me'yoriy baza taklif etilayotgan loyiha tegishli bo'lgan atrof-muhit sifati, sog'liq va xavfsizlikni tartibga soluvchi tegishli mahalliy va xalqaro qoidalar, standartlar va yo'riqnomalarning tavsifini beradi. U atrof-muhit sifati, sog'liq va xavfsizlik, tabiiy va madaniy



**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**

Bob	Tarkib tavsifi
	resurslarni muhofaza qilish va erdan foydalanishni nazorat qilishni tartibga soluvchi nazorat qiluvchi organlarni tasdiqlaydi. ShGKM nizomlari, tamoyillari va SXA korporativ yo'riqnomalari va kreditorlarning EITB talablarining qisqacha mazmuni ham kiritilgan.
5 EITB yondashuvi va metodoligayasi	Yondashuv va metodologiya bo'limi atrof-muhitni baholashda kattalik va sezgirlikni aniqlash uchun foydalilanligan mezon va ta'riflarni belgilaydi. Bo'limda foydalilanligan reyting sxemasi va loyiha qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan
6 Jamoatchilik bilan maslahatlashish va tushintirish	Ushbu bo'lim EITB jarayonining bir qismi sifatida yakunlangan jamoatchilik bilan maslahatlashish va oshkor qilish bo'yicha barcha tadbirlarni umumlashtiradi. Bu fikr-mulohazalar va olingan sharhlar umumiyligi EITB jarayoniga qanday kiritilganligini tasdiqlaydi.
7-9 Asosiy (jismoniy, biologik va ijtimoiy-iqtisodiy) muhitning tavsifi	Jismoniy, biologik va ijtimoiy-iqtisodiy muhitni qamrab oluvchi asosiy atrof-muhit sharoitlari loyihaning ta'sir doirasidagi boshlang'ich sharoitlarni aniqlash uchun hujatlashtirilgan.
10 Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash	<p>Ekologik va ijtimoiy jihatlar / ta'sirlarni aniqlash</p> <p>Aniqlangan ekologik yoki ijtimoiy retseptorga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan loyihaning asosiy jihatlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Potentsial ta'sirlar ehtimollik va oqibatlarni aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqotlarni talab qilmasligiga qarab tasniflanadi.</p> <p>Muhim ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni / xavflarni baholash</p> <p>EITB jarayonida tekshirishni talab qiladigan potentsial atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni baholash ushbu bobda keltirilgan. Loyiha faoliyati natijasida atrof-muhit va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar tavsiflangan va baholash jarayonidan foydalangan holda baholanadi: rejalahtirilgan tadbirlarning davomiyligi/chastotaligi va ko'lami; rejalahtirilmagan hodisalarining ehtimoli (ehtimolligi) va potentsial ko'lami; qabul qiluvchi muhitning sezgirligi (yoki oqibatlari); va standart xavflarni nazorat qilish/yumshatish choralarini qo'llash.</p> <p>Muhim ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni / xavflarni boshqarish</p> <p>Ushbu bo'lim ta'sirni maqbul darajaga kamaytirish uchun zarur bo'lgan har bir aniqlangan muhim salbiy ta'sir</p>



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

	Bob	Tarkib tavsifi
		uchun barcha mumkin bo'lgan boshqaruv variantlarini ta'riflaydi. Boshqaruv variantlari bashorat qilingan salbiy ta'sirlarning oldini olish, minimallashtirish, kamaytirish yoki bartaraf etish yoki kamaytirish mumkin bo'lmasan ta'sirlarni qoplash choralarini ko'rib chiqadi.
		Umumiy ta'sir
		Loyihaga tatbiq etilishi baholansa, umumiy ta'sirlarning qisqacha tavsifi taqdim etiladi.
		Qoldiq ta'sirlar
		Boshqaruv va ta'sirni yumshatish chora-tadbirlari amalga oshirilgandan so'ng kutilayotgan qoldiq ta'sirlarning qisqacha tavsifi, shuningdek qolgan qoldiq ta'sir darajasi. Barcha qoldiq ta'sirlar EIBMR ning dastlabki ekologik va ijtimoiy boshqaruv va monitoring rejasiga kiritiladi.
11	Ekologik va ijtimoiy boshqaruv va monitoring dastlabki rejasি	Boshqaruv choralarini va monitoring talablari dastlabki ESMMPa hujjatlashtirilgan. Dastlabki ESMMPa aniqlangan muhim salbiy ta'sirlarning oldini olish, kamaytirish va bartaraf etish choralarini maqbul darajaga yetkazish hamda ijobiy ta'sirlarni rag'batlanirish va kuchaytirishni ta'minlash bo'yicha batapsil ma'lumotlar keltirilgan. Dastlabki ESMMPa xalqaro standartlarga/qo'llanmalarga va ShGKMning ichki siyosatlariga va AMXS bo'yicha mahalliy standartlarga/yo'riqnomalarga amal qiladi.
12	Umumlashtirish va hulosa	EITBning asosiy xulosalari va tavsiyalarining qisqacha mazmuni keltirilgan

## 1.6 Tegishli hujjatlar

Alovida tayyorlangan (boshqalar tomonidan) ekologik ta'sirni baholash (ETB) O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy bazasiga va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va Atrof Muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi talablariga javob berishi kerak.

Ushbu EITB milliy EIA dan alovida, mustaqil tashkilot tomonidan tayyorlangan. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va SCEEP va mazkur xalqaro EITB talablari doirasida farqliklar kelib chiqishi mumkin

EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I


## **2. TAKLIF ETILAYOTGAN LOYIHA TAVSIFI**

## 2.1 Umumiyyat ta'rif

Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi tomonidan boshqarilayotgan hozirgi zavod Sho'rtan gaz konidan etan ajratish va etilen ishlab chiqarish uchun tabiy gazdan foydalaniadi. Etilen asosiy mahsulot sifatida (LLDPE) Chiziqli past zichlikdagi polietilenga aylanadi. Ayni paytda yillik 140 ming tonna etilen va 125 ming tonna (LLDPE) Chiziqli past zichlikdagi polietilen ishlab chiqarilmoqda.

Tabiiy gazning kelajakdagagi amalga oshirilgan hisob kitoblariga ko'ra tabiiy gaz tarkibida etan gazining miqdori 60% gacha oshishi aniqlandi va uni qayta ishlash orqali, qo'shimcha yillik 80 ming tonna etilen ishlab chiqarishga erishiladi. GTL zavodida yillik 430 ming tonna nafta mavjud. Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi yillik qo'shimcha 285 ming tonna etilen va 100 ming tonna propilen ishlab chiqarish uchun gazni ajratish qurilmasidandagi ortiqcha etanni va naftani qayta ishlash uchun Nafta kreking qurilmasini o'rnatadi. Ushbu qo'shimcha etilen va propilen bilan Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi qo'shimcha yillik 280 ming tonna HDPE mahsuloti va 100 ming tonna polipropilen mahsulotini ishlab chiqarish uchun yangi bimodal polietilen va polipropilen blokini o'rnatish rejalashtirilgan.

Ushbu modernizatsiya orqali gazlarni nordon gazlardan tozalash qurilmasida gaz tarkibidagi CO<sub>2</sub> kontsentratsiyasini nordon gazlarni yutish qurilmasini dizayn asoslarida (BoD) (WorleyParsons, 2017) belgilangan miliondan 50 (ppm) darajagacha kamaytirishini ta'minlaydi. 4-blok diargammada bo'limlar modernizatsiya loyihasi va mo'ljallangan qurilish jarayonining umumiyo'ki ko'rinishi berilgan.



SHGKM blok diagramması (WorleyParsons 2017)



EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

## 2.2 Joriy qurilish maydoni holati


### 2.2.1 Qurilish maydonining ko'rinishi

Mavjud SHGKM qurilish maydonining o'lchami quyidagi 5-rasm va 6-rasmda ko'rsatilgan.



4 Qurilish maydonining havo rejasi. (Manba: [www.bing.com/maps](http://www.bing.com/maps)).

## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I



## 5 Qurilish maydonining joylashtirish rejasi

### **2.2.2 Mavjud qurilmalar**

Mavjud SHGKM da quyidagi texnologik qurilmalar mavjud:

#### **2.2.2.1. NORDON GAZLARDAN TOZALASH QURILMASI, GAZNI AJRATISH QURILMASI VA ETILEN QURILMASI:**

- Tabiiy gazni nordon gazlardan tozlash qurilmasi (1700);
  - Tabiy gazni quritish, sovutish va ajratish qurilmasi (1800);
  - Issiqlik jarayonlari qurilmasi (1100);
  - Pirogazni siqish va ishqor bilan tozalash qurilmasi (1200);
  - Pirogazni sovutish qurilmasi (1300);
  - Etilen ajratib olish qurilmasi (1400);
  - Propan suvutish qurilmasi (1500);
  - Etilen sovutish qurilmasi (1600).
  - Oltingugurt olish qurilmasi (7600)

#### **2.2.2.2. POLITIE EN VA BUTEN-1:**

**EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I**

- Polimerlash reaksiyasi qurilmasi (2100)
- Retsikl qurilmasi (2200)
- Polietilenga oxirgi ishlov berish qurilmasi (2300)
- Buten-1 olish qurilmasi (3000)

**2.2.2.3. ISHLATILGAN ISHQORNI OKSIDLASH VA NEYTRALLASH JARAYONI QURILMASI :**

- Ishlatilgan ishqorni oksidlash va neytrallash jarayoni qurilmasi (4000)

**2.2.3 Mavjud umumzavod xo'jaligi**

Bundan tashqari, quyidagi qurilmalar va texnologik jarayonlar ham mavjud:

- Qozon taminot suvi (6000);
- Sovutish suvi (6200);
- Bug' ishlab chiqarish (6100);
- Demin suvi ishlab chiqarish (6300);
- Yoqilg'i gazi ishlab chiqarish (6800);
- Azot va xavo ishlab chiqarish qurilmasi (6600);
- Yong'inga qarshi suv tizimi (7000);
- Elektr taminoti (7200);
- Chiqindi suvlarni tozalash 6400);
- Chiqindi yog'larni tozalash (6401);
- Ishqorni to'kib olish (7400);
- Tavar xom ashyo saqlash (8100);
- Mash'ala tizmi (6900).

**2.2.4 Mavjud jarayonlar**

Quyidagi bo'limlar 7-rasmda ko'rsatilgan SHGKM dagi jarayonlarni umumlashtiradi.

**2.2.5 Nordon gazlardan tozalash (NGT)**

Zavod chegarasidan olingen tozalanmagan tabiiy gaz asosan ikkita kalonnadan iborat nordon gazlardan tozalash qurilmasiga (AGRУ) yo'naltiriladi, absorber va desorber va boshqa tegishli qurilmalardan iborat. Tabiiy gaz nordon gazlarini (karbonat angidrid [CO<sub>2</sub>] va vodorod sulfidi [H<sub>2</sub>S]) olib tashlash uchun Absorberdagи amin eritmasi Dietanol amin (DEA) bilan reaksiyaga kirishadi. So'ng nordon gazlardan tozalangan tabiiy gaz absorber yuqori qismi orqali gazni ajratish qurilmasiga (GSU)



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

yuboriladi. Absorberning pastki qismidagi to'yingan amin eritmasi keyinchalik desorberga yo'naltiriladi, u erda nordon gazlar amin eritmadan ajratib olinadi va dietanol amin qayta absorberga yuboriladi. Har qanday yo'qotishlarni qoplash uchun amin eritmasi tizimga qaytariladi. Nordon gazlar oltingugurt olish qurilmasiga yuboriladi. Oltingugurt olish qurilmasi maxsus titan oksidi katalizatorida ( $TiO_2$ ) vodorod sulfidini havo bilan to'g'ridan-to'g'ri kislorodlash orqali vodorod sulfidi bo'lgan nordon gazlaridan oltingugurt ishlab chiqarish va granulyatsiya qilish uchun mo'ljallangan.

### 2.2.6 Gazni quritish, sovutish va demetanizatsiyalash

Nordon gazlardan tozalash tizimidan tozalangan tabiiy gaz gazlarni ajratish bo'limiga yo'naltiriladi, u yerda sovutiladi, quritiladi va Gazlarni ajratish bo'limidagi demetanizatoriga yuborishdan oldin yana sovutiladi. Sovutishning bir necha bosqichlari propanli sovutgich, etilenli sovutgich va Gazlarni ajratish bo'limi sovuq qutisidan qaytgan metan fraksiyasi yordamida amalga oshiriladi, gaz esa molekulyar sita quritgich bilan to'dirilgan quritgichlarda quritiladi.

Gazlarni ajratish bo'limi Demetanizatorida metan fraksiyasi etan fraksiyasidan ajratiladi, etanning 95% i olinadi. Etilenli sovituvchining eng past darajasi yordamida Demetanizatorga flegma taminlanadi. Sovutish sistemasi va demetanizatorda sovutishni ta'minlash uchun etilen zavodiga qo'shimcha suyuq metan yuboriladi.

Demetanizator yuqori qismi qayta isitiladi va bosimi ko'tarilib va tovar metan gazi sifatida eksport uchun yo'naltiriladi. Qayta isitilgan demetanizator yuqori oqimining o'zgina qismi gazlarni ajratish, etilen va polietilen qurilmalarida joylashgan quritgichlarni qayta tiklash uchun ishlatiladi.

### 2.2.7 Deetanizatsiya, Depropanizatsiya va Debutanizatsiyalash

Demetanizator kub qismidan Gazlarni ajratish bo'limi Deetanizatorga yo'naltiriladi, u yerda etan yuqori qismdan ajratib olinadi va etilen qurilmasiga xom ashyo sifatida deetanizator reflaks separatori orqali yuboriladi. Etan, shuningdek, etilen qurilmasi kam quvvat bilan ishlaganda yoki tartibli o'chirish uchun piroliz pechlarini xom ashyo bilan ta'minlash uchun Gazlarni ajratish bo'limi deetanizator refluks separatorida kondensatsiyalanishi va saqlanishi mumkin.

Propan va og'ir komponentlardan tashkil topgan deetanizator kubida GAQ depropanizerga yo'naltiriladi, u yerda u pastroq bosimda ajraladi va propan yuqori mahsuloti va butan va og'ir pastki mahsulot ishlab chiqarish uchun fraktsiyalanadi. Propanning bir qismi propan sovutish tizimini to'ldirish uchun vaqt-i-vaqt bilan ishlatiladi.

Depropanizatorning kub qismidagi mahsulot pastroq bosimda bug'lanadi va butan fraksiyasi kalonnaning yuqori qism mahsuloti, pentan va undan og'ir fraktsiyalar pastki mahsulot hosil qilish uchun debutanizatorda fraktsiyalanadi, ikkalasi ham mahsulotni saqlashga bo'limiga yuboriladi. Gazlarni ajratish qurilmasiga barcha sovituvchi agentlar etilen qurilmasining sovitish kompressor sistemalari tomonidan ta'minlanadi.



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

### 2.2.8 Ta'minlash tizimi

Etanga boy maxsulot Gazlarni ajratish qurilmasi Deetanizator refluks separatoridan gaz holatdagi oqimi sifatida chiqadi. Ethan gazi sovuqlik qutisi №2 da tabiiy gaz bilan isitiladi va so'ngra etan gazi birlamchi issiqlik almashtirgich orqali qizdirilib piroliz pechlariga yuboriladi.

Gazlarni ajratish qurilmasida deetanizator reflux separatoridan olingen suyuq etan gaz holatga o'tqaziladi va etan xom ashvosini yetmagan qismiga qo'shimcha sifatida piroliz pechlariga yuboriladi. Bu etan bug'latgichi Gazlarni ajratish qurilmasii eng minimal yuklama bilan ishlash sharoitida ishlaganda yoki tartibli o'chirish davomida piroliz pechlarini maxsulot bilan ta'minlash uchun ishlatiladi. Saqlangan suyuqlik etanni bug'lash uchun bug'li issiqlik almashtirgich ishlatiladi. So'ngra gaz holatga o'tgan etan yuqorida aytib o'tilganidek, etan xom ashvosini birlamchi qizdirish isitgichiga yuboriladi.

### 2.2.9 Piroliz, toplash jarayoni, texnologik suvni tozalash va etan maxsulotini to'yintirish

Etan maxsuloti va qaytib kelayotgan etan oqimi saturator kalonnasiga yuborilgunga qadar aralashtiriladi va toplash suvi bilan qizdiriladi. Saturatorda oldindan qizdirilgan aylanma texnologik suv bilan to'g'ridan-to'g'ri issiqlik almashinish orqali kerakli bug'ning etanga nisbatiga erishish uchun etan gazi namlash orqali suv bug'i bilan to'yintiriladi. Oltingugurt (dimetil disulfid [DMDS] sifatida) bug' piroliz pech quvurlarini koks va uglerod oksidi hosil bo'lishidan himoya qilish uchun umumiylashtiriladi. Saturatordan namlangan etan keyin bug' bilan aralashtiriladi va piroliz pechiga kirishdan oldin yana qizdiriladi.

Uchta SRT VI (Etilen piroliz pech) piroliz pechlari mavjud. Ikkita piroliz pechi normal rejimda, uchinchisi esa koxsadan tozalash jarayonida yoki kutish rejimida ishlashning uzluksizligi taminlash uchun taqdim etilgan. Har bir piroliz pechi har bir radiant qism quvurlaridan chiqadigan pirogaz oqimi tegishli birlamchi toplash aparatlarida orqali alohida sovutiladi va ikkilamchi toplash aparatiga kirishdan oldin birlashtiriladi va keyin sovutiladi. Bu jarayon har bir piroliz pechlari uchun umumiy bug' separatoriga ulangan termosifon tizimi orqali birlamchi toplash aparatlarida o'ta yuqori bosim bug'ini hosil qiladi. Bug' separatoriga qozonxona taminot suvi piroliz pechning konvektiv qismida tutin gazi bilan birlamchi qizdiriladi.

Keyinchalik aralashgan issiqlik pirogaz oqimi toplash kalonnasiga yo'naltiriladi, u yerda suv bilan to'g'ridan-to'g'ri qarshi oqim bilan sovutiladi va pirogazni siquv kompressorining birinchi bosqichiga yuboriladi. Kondensatsiyalangan uglevodorodlar kalonna tubiga tushadi va aylanma toplash suvidan ajratiladi. Keyinchalik bu kondensatsiyalangan uglevodorodlar sovutiladi va yoqilg'i tizimiga yuboriladi. Issiqlik aylanma toplash suvidan ishlov beruvchilarni past darajadagi issiqlik bilan ta'minlash uchun ishlatiladi va to'yintirish oqimi to'g'ridan-to'g'ri DOX qurilmasiga haydaladi, bu yerda to'xtatilgan qattiq moddalar va emulsiyalangan yog'lar texnologik suvdan ajratib olinadi.

### 2.2.10 Pirogazini siqish va nordon gazdan tozalash

Toplash kalonnasining yuqorisidan chiqqan gaz oqimi besh bosqichli markazdan qochma kompressorda sovutish suvi yordamida bosqichlararo sovutilib etapma-etap bosimi ko'tarilib boriladi.



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

Piroлиз gazni bosimini ko'tarib borishda kondensatsiyalangan suv va uglevodorodlar separatorlarda to'planadi va Quench kalonnasi kub qismiga qaytariladi.

Kompressorning uchinchi va to'rtinchi bosqichlarida nordon gazlar piroлиз gazi kompressori sistemasidan chiqarilishi uchun nordon gazlardan tozalash bo'limiga yuboriladi. Nordon gazlardan tozalash bo'limida nordon gazlarni to'liq olib tashlashni ta'minlash uchun ikki bosqichli Kaustik yuvish kalonnasidan iborat. Har bir bosqich ishqor aylanma sxemasidan iborat bo'llib, u yerda gidroksid pastki qismdan yuqori qismiga nasoslar yordamida haydaladi. Ishqor bilan kompressor tizimini ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik uchun gidroksid kalonnasining yuqori qismidan suv bilan yuvish bo'limi mavjud. Bug' kondensati sovutiladi va yuvish suvi sifatida va aylanma ishqor qismlarini suyultirish va injektsiya qilish sifatida ishlatiladi. Ishlatilgan yuvish suvi dastlab ishqor aylanma oqimalari uchun suyultiriladigan suv talablarini qondirish uchun ishlatiladi va keyin bo'lim chegarasidan tashqariga (OSBL) tozalashga yuboriladi. Suyultirish uchun zarur bo'lgan har qanday qo'shimcha suv o'ta yuqori bosimli bug'ning uzlusiz bug' chiqarish separatoridan kondensat bilan ta'minlanadi. Ishqor kalonnasining pastki qismidagi sarflangan ishqor keyingi ishvlov berish uchun ishlatilgan ishqorni oksidlash qurilmasiga yuboriladi. Ishqor kalonna kubida hosil bo'lgan har qanday sariq moy vaqtiga qayta ishslash separatorlarga chiqarib turiladi.

Piroлиз gazni beshinchi bosqichdan chiqishi sovutish suvi bilan sovutiladi va keyin piroлиз gaz quritgich maxsulot bilan ta'minlash separatoriga kirishdan oldin propan yordamida sovutish qurilmasida sovutiladi. Gaz holatdagi piroлиз gaz quritgichiga yuboriladi va kondensatsiyalangan suv va uglevodorodlar piroлиз gaz kompressorining beshinchi bosqich kirish separatoriga beriladi.

### 2.2.11 Pirogazni quritish

Quritgich separatoridan kelayotgan pirogaz quritgich sistemasidagi ikkita quritgich yordamida quritiladi. Bir quritgich ishchi rejimida, ikkinchisi esa siklik operatsiyada qayta tiklanish jarayonida bo'ladi. Qayta tiklash jarayonida vodorod/metan gazining bir qismi hamda Gazlarni ajratish qurilmasidagi tabiiy gazning bir qismi yuqori bosimli bug' bilan ishiladi va pirogaz quritgichlari, tabiiy gaz quritgichlari, etilen quritgichlari va Polietilen bo'limidagi ettlen minorasi quritgichlarni qayta tiklash uchun ishlatiladi. Qayta tiklashdan so'ng gaz sovutiladi va yoqilg'i tizimiga yuboriladi. Har qanday kondensatsiyalangan suv Toblash kalonnasiga qaytariladi.

### 2.2.12 Sovutish tizimi

Pirogaz quritgichidan chiqayotgan pirogaz 1, 2 va 3-demetanizator separatorlariga yuborilgunga qadar texnologik oqimlar, propan va etilen sovutgich bilan issiqlik almashinuvni orqali asta-sekin sovutiladi. Bu separatorlardagi kondensat demetanizatorga maxsulot sifatida yuboriladi.

№1sonli demetanizator maxsulot separatoridan olinadigan pirogaz sovuq sovutish kamerasi chiqindi gazlar va etilen sovutgichning eng sovuq darajasi bilan sovutiladi. Pirogaz №2 demetanizator separatoridan hosil bo'lgan vodorod/metan gazi va Gazlarni ajratish qurilmasidagi suyuq metan bilan issiqlik almashinuvni yo'l bilan qo'shimcha sovutiladi. Keyin kondensat Demetanizatorga eng sovuq maxsulotni ta'minlaydigan №3 demetanizator separatorida ajratiladi.

Sovuq qutida qayta qizdirilgandan so'ng, №3 demetanizator maxsulot separatoridan olingen vodorodga boy gaz uchta oqimga bo'linadi. Birinchi oqim atsetilen konvertori va polietilen bo'limi uchun yuqori tozalikdagi vodorodni ta'minlaydigan Qisqa skilli absorbsiya (QSA) qurilmasiga yuboriladi. QSA chiqindigaz piroлиз pechlar yoqilg'i gaz tizimiga yuboriladi. Ikkinchi oqim bo'lim chegarasidan tashqariga va suyuq yoqilg'ini bug'lash tizimiga yuboriladi. 3-sonli demetanizator maxsulot separatoridan vodorodga boy



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

qolgan oqim sovuq qutida qayta isitiladi va quritgichni qayta tiklash uchun ishlatalishdan gaz bilan aralashtiriladi. Oxir-oqibat, bug' qozonining yoqilg'i tizimiga yo'naltiriladi.

### 2.2.13 Pirogazni demetanizatsiyalash

Pirogazni sovutish tizimidan olingan maxsulotlar Demetanizatorning tegishli nasadkalar qismiga yuboriladi. Demetanizator metan chiqindi-gazi yoqilg'i gaz tizimiga kirishi uchun yetarlicha yuqori bosim ostida ishlaydi.

Demetanizator kubidagi reboilerida piroliz gaz bilan qayta qaynatiladi. Kalonna yuqori qismidan chiqadigan gaz oqim Gazlarni ajratish qurilmasi demetanizatorida ishlab chiqarilgan suyuq metan bilan issiqlik almashinuv natijasida qisman kondensatsiyalanadi. Demetanizator tarmog'ining yuqori qismi gaz almashinuvchilarida qayta isitiladi va №3 demetanizator separatoridan qayta isitiladigan vodorod chiqindi gazi bilan birlashtiriladi. Vodorod / metan gazi Tovar metan gazi bilan birlashtiriladi va bug' qozonining yonilg'i tizimiga yo'naltirilgunga qadar quritgichlarni qayta tiklash uchun ishlataladi. Gazlarni ajratish qurilmasidan bug'langan suyuq metan sovuq qutida qayta isitiladi va piroliz pechlarining yoqilg'i gaz tizimiga yuborilishidan oldin QSA gazi bilan birlashtiriladi. Demetanizatorning kub qism nasoslari bilan haydaladi va ikkita oqimga bo'lindi. Ulardan biri etilen sovutish agenti bilan qayta qizdirilgandan so'ng va propan sovutgichining ikki bosqichidan so'ng Deetanizatorning yuqori maxsulot ta'minlash likopchasiga yuboriladi. Boshqa oqim etilen sovutish agenti bilan qayta isitiladi va Deetanizatorning pastki maxsulot likopchasiga yuborilgunga qadar propan sovutgichida sovuq rekuperatsiyaning to'rt bosqichida amalga oshiriladi.

### 2.2.14 Deetanizator, Atsetilen Konvertor va Etilen fraksiyasini ajratish kolonnasi

Demetanizator ostki qism mahsuloti Deetanizatorni maxsulot bilan ta'minlaydi. Deetanizator flegmasi yuqori qismni propanli sovutgich bilan qisman kondensatsiya qilish orqali ta'minlanadi, qayta qaynatish vazifasi esa to'yingan past bosimli bug' bilan ta'minlanadi. Deetanizatorning quyi qismi yoqilg'l tizimiga yuboriladi.

Deetanizator yuqori qismidan chiqgan atsetilen etilen va etanga selektiv gidrogenlash yo'lli bilan o'tkaziladi. Atsetilen konvertori bitta gidrogenlash katalizatori qatlamida ishlashga mo'ljallangan. Zaxira konvertor bilan ta'minlangan, shunda katalizator o'ta qizib ketgan bug' va havo aralashmasi bilan ishlashning uzuksizligini to'xtatmasdan qayta tiklanishi mumkin.

Vodorod Deetanizatorning yuqori qismidan chiqishiga qo'shiladi va keyin konvertor oqimi va past bosimli bug' bilan birlamchi isitiladi. Keyin oldindan qizdirilgan oqim katalizator qatlamidan o'tkaziladi. Keyin konvertorning oqimi sovutish suvi bilan issiqlik almashinuv va konvertorning masuloti bilan asta-sekin sovutiladi.

Reaktsiyaning qo'shimcha mahsuloti atsetilen polimeri bo'lgan yashil moydir. Yashil moy etilen fraksiyanatori maxsulotini to'g'ri quritishga xalaqt beradi, bu esa muzlash bilan bog'liq muammolarni oldini olish uchun zarurdir. Yashil yog'ni yo'qotish uchun asetilen konvertoridan sovutilgan oqim C2 Yashil yog' separatoridan keyingi oqimidagi Etilen fraksiyonatoridan suyuq etilen/etan oqimi bilan issiqlik almashadi va keyin separatorda bug'lanadi. Separatordan chiqadigan suyuqlik yana Deetanizatorga haydaladi. Yashil yog' deetanizator kub qismidan chiqadi va separatoridan gaz fazasi orqali Etilen fraksiyonatoriga malekulyar adsorbent orqali o'tadi. Etilen quritgich bitta idish bo'lib, quritgich qayta



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

tiklanish jarayonida chetlab o'tishni talab qiladi. Etilen fraksiyonatorini kub qismi reboileri va yon qism reboileriga ega. Pastki qism reboilerining kondensatsiyalanuvchi propan sovutgich bilan isitiladi. Yon reboiler pirogaz bilan isitiladi.

Etilen fraksiyanatorining pastki qismlaridan chiqqan etan pirogaz bilan bug'langandan so'ng Piroliz pechlarida qayta ishlanadi va gaz holatdagi tozalangan yangi etan maxsuloti bilan aralashadi va keyin toblast suvi bilan isitiladi. Etilen fraksiyonatorining yuqori qismi propan sovutgich bilan kondensatsiyalanadi. Asetilen konvertoridan chiqadigan vodorod/metan chiqindi gazi va etilenning muvozanat konsentratsiyasi reflux oqim separatoridan pirogaz kompressorining uchinchi bosqichiga chiqariladi. Etilen mahsuloti fraksiyanator kalonnasining tepasidan bir nechta likopcha pastidan yon tomonidan chiqadi va saqlashga yuboriladi. Etilen maxsuloti saqlash joyidan polietilen qurilmasiga yuborishdan oldin sovuq qutি va propan sovutish agenti bilan issiqlik almashib qizdiriladi.

### 2.2.15 Propanli sovutish qurilmasi


Propanli sovutish tizimi to'rt bosqichli yopiq tizim bo'lib, texnologik gazni sovutish uchun bug 'turbinasi bilan boshqariladigan markazdan qochma kompressordan foydalanadi. Tizim -37°C dan 13°C gacha bo'lgan to'rtta harorat darajasida sovutishni ta'minlaydi va Sovuqlik jarayonlari qurilmasi va Gazni ajratish qurilmasini sovutish tizimi bilan ta'minlaydi.

### 2.2.16 Etilenli sovutish qurilmasi

Etilenli sovutish tizimi - bu texnologik gazni sovutish uchun bug 'turbinasi bilan boshqariladigan markazdan qochma kompressordan foydalanadigan yopiq uch bosqichli tizim. Tizim -101°C dan -62°C gacha bo'lgan to'rtta harorat darajasida ega bo'lib, Sovuqlik jarayonlari qurilmasi va Gazni ajratish qurilmasini sovutish tizimi bilan ta'minlaydi. Quruq gaz zichlagichlari ikkala sovutish kompressorlari uchun ham mavjud bo'lib, kompressorga moylash moyining kirishi va muzlashi ehtimolini yo'q qiladi.



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I



6 Mavjud jarayonlar oqimi diagrammasi (WP (1), 2016)

### 2.3 Loyihaning tavsifi

#### 2.3.1 Ta'rif

SGCCUPning maqsadi etilen ishlab chiqarish quvvatini hozirgi 140 ming tonna dan qo'shimcha 285 ming tonna ga oshirish va qo'shimcha 98 ming tonna propilen ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Bunga tabiy gaz hom-ashyosi tarkibidagi etan miqdorini taxminan 60% ga oshirish orqali va GTL zavodidan 430 ming tonna nafta hom-ashyosi qayta ishlash orqali erishiladi. Qo'shimcha etilen natijasida 280 ming tonna bimodal yuqori zichlikdagi polietilen (LLDPE) va 100 ming tonna polipropilen ishlab chiqaradigan yangi Polipropilen zavodi tashkil etiladi. Ushbu qo'shimcha etilen yangi bimodal polietilen zavodida polietilen ishlab chiqarish uchun ishlatalidi.

Gazni tozalash va ajratish qurilmasidagi yangilanishlar gaz tarkibidagi nordon gazni ( $\text{CO}_2$ ) kontsentratsiyasini Dizayn asoslarida (WP, 2016) belgilangan kerakli 50 ppm darajagacha tozalash imkonini beradi.



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

### 2.3.2 Loyiha Tarkibi

Quyidagi 2-jadval va 8-rasmida loyiha uchun ob'ektni yangilash tafsilotlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan:

*2-jadval - Ob'ektni yangilash tafsilotlari*

Qurilmalar	Yangilash tafsilotlari
Nordon gazini tozalash qurilmasi (AGRU)	AGRUni yangilash Dow kompaniyasi tomonidan mavjud DEA erituvchisini almashtirish va Absorber kalonnasini ichki qismini o'zgartirish amalga oshiriladi. Ushbu yangilangan jarayon Dizayn asoslari spetsifikatsiyasiga muvofiqligi talab qilinadi, shu jumladan tozalangan gaz oqimidagi CO2 kontsentratsiyasi 50 ppm dan kam bo'lisligha erishish talab qilinadi.
Gazni ajratish qurilmasi (GSU)	GSU Etan kontsentratsiyasining o'sishini hisobga olish uchun mavjud bo'linmalarni qayta tiklash orqali yangilanadi. Quyidagi asosiy uskunalar va ular bilan bog'liq uskunalar yangilanadi va almashtiriladi: <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ Demetanizator kalonnasi (faqat ichki qismi);</li> <li>▪ metan isitgichi 1 va 2-sonli (almashtiriladi);</li> <li>▪ Demetanizatorni ta'minlash sig'imi (almashtiriladi);</li> <li>▪ Demetanizer yon reboyeri (almashtiriladi);</li> <li>▪ Demetanizer kondensatori (almashtiriladi);</li> <li>▪ Tabiiy gaz rekompresorli sovitkich (almashtiriladi);</li> <li>▪ etan gazi bug'latgichi 2-sonli (yangi o'rnatiladi);</li> <li>▪ Ishga tushirish/makiyaj propan nasosi (yangi o'rnatiladi);</li> <li>▪ Cold Box (Yangi o'rnatiladi);</li> <li>▪ almashtirgichlar/kondensatorlar; va</li> <li>▪ Yangi Nafta kreking / mavjud Etilen / Propilen bo'llimlarini bir biriga bog'lash nuqtalari.</li> </ul>
Mavjud Etilen ishlab chiqarish bo'limi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Etilen sovutish kompressori va Gazni ajratish qurilmasidagi sovutgich kondensatori yangilanadi. Quyidagi Nafta kreking bo'llimi va mavjud zavod o'tasidagi quvurlar ulanishi talab qilinadi.</li> <li>• Qisqa siklli adsorbsiya qurilmasidan (PSA);</li> <li>• Deetanizator kub qismidan;</li> <li>• Etilen mahsuloti nasoslaridan;</li> <li>• Etilen fraksiyonatorining yuqori qismidan; Etilenni saqlash sferalariga.</li> </ul>


Qurilmalar	Yangilash tafsilotlari
Nafta kraking qurilmasi (Etilen/Propilen qurilmasi)	Nafta kreking zavodi uchta asosiy blokdan iborat: Etilen qurilmasi (EI), C4/C5 umumiyligi gidrogenlash qurilmasi (C4/C5 THU) va piroliz distilyatini gidrogenlash qurilmasi (DPG-1). Etilen qurilmasi etilen va propilen ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan; THU C4/C5 komponentlarini qayta ishlash va parafinlargacha to'liq gidrogenlash uchun mo'ljallangan; va DPG piroliz distilyatini qisman gidrogenlash uchun mo'ljallangan.



## EKOLOGIK VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH TOM – I

Qurilmalar	Yangilash tafsilotlari
	E'tibor bering, yangi Etilen qurilmasi "Nafta kreking zavodi" deb ham ataladi, Etilen qurilmasi /propilen zavodi deb ham ataladi.
Yangi Polietilen qurilmasi	Materialni qayta ishlash bo'limlarini (tashish, aralashtirish, saqlash, qoplarga solish, temir yo'l va avtomashinalarga yuklash va saqlash) o'z ichiga olgan Bimodal HDPE texnologiyasidan foydalanadigan yangi blok; qoplash uchun pylonka ishlab chiqarish; katta o'lchamli qoplar ishlab chiqarish; yo'llar; energo resurslar va umum zavod xo'jaligi.
Yangi Polipropilen qurilmasi	Materiallarni qayta ishlash bo'limlarini o'z ichiga olgan yangi blok (tashish, aralashtirish, saqlash, qoplash temir yo'llari va avtomashinalarga yuklash va saqlash); yo'llar, energo resurslar va umum zavod xo'jaligi.
